


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUXANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

IQTISODIYOT FAKULTETI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası
mudiri 3525 i.f.n., R.F.Omonov
“ 16 ” 06 ” 2014 yil



“Iqtisodiyotni erkinlashtirishda Mikrocreditbank OATBning o‘zi ga xos xususiyatlari va tashkiliy-huquqiy asoslari” (“Mikrocreditbank” OATB Koson filiali misolida) mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: “Bh va A” ta‘lim
yo‘nalishi bitiruvchisi IV kurs M-469
guruh talabasi [signature] D.M. Muhidinov.

ILMIY RAHBAR:
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası
dotsenti [signature] i.f.n. G.J. Jumayeva

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi

16 sonli bayonnoma “ 16 ” 06 ” 2014 y.

“BH va AUDIT” KAFEDRASI

“ 17 ” 06 ” 20/14 ”

№ 9

Qarshi-2014 yil

QARSHI MUXANDISLIK- IQTISODIYOT INSTITUTI
BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ
"TASDIQLAYMAN"

Kafedra mudiri, vvb: G. Jumayeva dots.S.R.Egamberdiyeva

« 14 » 01 2014 yil

Talaba: *Muhidinov Dilshod Muhidin o'g'li*

Ta'lim yo'nalishi: *Moliya*

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: *Iqtisodiyotni erkinlashtirishda Mikrocreditbank OATBning o'ziga xos xususiyatlari va tashkiliy-huquqiy asoslari*

2. Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti o'tilgan joy: *"Mikrocreditbank" OATB Koson filiali*

3. Bitiruv malakaviy ishi rahbari: *"BHvaA" kafedrasi dosenti G.Jumayeva*

4. Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: *Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini kreditlash va uni takomillashtirish masalalarini "Mikrocreditbank" OATB Koson filiali misolida o'rganish, sohasidagi mavjud muammolarni aniqlashtirish, tahlil qilish va kreditlash masalalarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.*

5. Ish rejasi:

BMI bo'limi	Bitiruv malakaviy ishi bo'limi nomi	Bajarish muddati
Kirish	<i>Kirish</i>	20.01.2014- 01.02.2014
I-Bob	<i>I-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning zarurligi, ahamiyati va vazifalari.</i>	10.02.2014- 01.03.2014
II-BOB	<i>II-Bob. Mikrocreditbank OATBning tashkiliy-huquqiy asoslari va bankda kreditlashning hozirgi holati, amaliy jihatlar.</i>	10.03.2014- 05.04.2014
III-BOB	<i>III-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirishda tadbirkorlik faoliyatini kreditlashni takomillashtirish yo'llari.</i>	14.04.2014- 03.05.2014
Xulosa va taklif	<i>Xulosa va takliflar.</i>	12.05.2014
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.</i>	26.05.2014
	<i>Ilovalar.</i>	

6. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:

a) adabiyot manbalari: *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlari, ma'ruzalari, va mavzuga tegishli maxsus adabiyotlar, ilmiy maqolalar va internet materiallari*

b) qonuniy-meyoriy hujjatlar: *O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 maydagi "Mikrocreditbank aksiyadorlik tijoat bankini tashkil etish to'g'risida" gi PF- 3750- sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 6 maydagi "Mikrocreditbank aksiyadorlik tijorat banki faoliyatini tashkil etish va uning moddiy texnika bazasini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida" gi 78-sonli qarori.*

v) statistik va boshqa ma'lumotlar: *"Mikrocreditbank" OATB Koson filialining moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari*

7. Tasvirlash materiallari: *Analitik jadvallar, chizmalar.*

8. Topshiriq berilgan kun: *2014 yil 14 yanvar*

9. Ishni topshirish muddati: *2014 yil 10 iyun*

10. Ilmiy rahbar:

G. Jumayeva xulosasi BMI to'liq
va foydalanilgan hujjatda bajarilgan bo'lib,
BMI DAK olgida himoya qilishga tavsiya
etiladi. MBK

MUNDARIJA

Kirish	3
I-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning zarurligi, ahamiyati va vazifalari.	12
1.1. Tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning zarurligi, nazariy va huquqiy asoslari.	12
1.2. Tadbirkorlik faoliyatini kreditlash tartiblari.	22
1.3. Tadbirkorlik faoliyatini kreditlashdagi mavjud muammolar.	32
II-Bob. Mikrocreditbank OATBning tashkiliy-huquqiy asoslari va bankda kreditlashning hozirgi holati, amaliy jihatlari.	39
2.1. OATB "Mikrocreditbank" Koson filialining tashkiliy-huquqiy asoslari, bankda tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning hozirgi holati va dinamikasi tahlili.	39
2.2. OATB "Mikrocreditbank" Koson filialida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning amaliy jihatlari.	53
2.3. OATB "Mikrocreditbank" Koson filialida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili.	66
III-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirishda tadbirkorlik faoliyatini kreditlashni takomillashtirish yo'llari.	82
3.1. Kreditlash samaradorligini oshirishning tashkiliy asoslarini takomillashtirish.	82
3.2. Kreditlashda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari.	88
Xulosa va takliflar.	93
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	105
Ilovalar	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ularning faoliyatini yanada kengaytirish va ularni qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish davr talabidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013–yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va- 2014yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlangandek, “Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 55,8 foizi ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda. Vaholangki, 2000-yilda bu ko'rsatkich 31 foizdan iborat edi. Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizikichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqdadir.”¹ Shunungdek, tahlillardan ko'rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rnini tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Faqatgina 2013- yilning o'zida yurtimizda 206 mingdan ziyod kichik biznes sub'ekti ish boshladi. Ushbu sektorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning umumiy soni yil oxiriga kelib 190 mingtaga yetganligi alohida ahamiyatga egadir.

Zero, kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda, aholini ish bilan ta'minlash

¹ Karimov I. A. Mamlakatimizni 2013–yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va- 2014yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2014 yil 18-yanvar.

muammosini hal etishda va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda. Endilikdagi ustuvor vazifalardan biri ularni moliyaviy va iqtisodiy nuqtai –nazardan qo'llab quvvatlashdir. Bunda bank kreditlaridan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, banklar mamlakatning asosiy moliyaviy ustunlaridan biri hisoblanib, kreditlash bank ishining o'zagini tashkil etadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida bank tizimini rivojlantirish va isloh etish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, natijada banklarning resurs bazasi kengayib, mustahkamlanmoqda, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanmoqda.

Xususan, Muhtaram Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganlaridek, “O'tgan yili tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga, 2000-yilga nisbatan esa 46 barobardan ziyod ko'paydi. Natijada bugungi kunda banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil etmoqda. Bu esa bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan talabdan uch barobar ko'pdir. Kredit portfeli jami mablag'larining 80 foizga yaqini ichki manbalar ulushiga to'g'ri kelmoqda.”²

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lidlaganidek: “Biz kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizm va sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. ... Kichik biznes korxonalariga tashqi bozorlarda o'z mahsulotlarini sotishga ko'maklashadigan,

²Karimov I. A. Mamlakatimizni 2013–yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va- 2014yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2014 yil 18-yanvar.

marketing o'tkazish, sertifikat v ruxsatnomalar olishni ta'minlaydigan mexanizmni yaratish uchun barcha zarur ishlarni amalga oshirish darkor".³

Bugungi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rni asta-sekin kengayib bormoqda. Uning mamlakatimiz eksport hajmidagi ulushi 2000 yilda 8,6 foizni tashkil etgan bo'lsa 10 yil ichida bu ko'rsatkich 9-10 foziga ko'pdir. 2011-yilda 18,8 foizni, 2012 yilda esa 15,8 fozini tashkil etdi.

Ammo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlarning ko'lamiga qaramasdan hududlar darajasida bu sohada hali o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Viloyatlarda kichik biznes eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha yuqri salohiyat mavjud bo'lishiga qaramasdan, hududlar kesimida kichik biznesning umumiy eksportdagi ulushi ko'rsatkichi bir-biridan kesqin farq qiladi. 2011 yilda mazkur ko'rsatkich Namangan viloyatida 86,7%, Samarqand viloyatida 61,0%, Jizzax viloyatida 44,7% dan iborat bo'lsa, Andijon viloyatida bu ko'rsatkich 6,4 foizni tashkil etgan xolos.⁴

Mazkur soha va tarmoqlarda kichik biznes taraqqiyotini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida kichik biznes sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasini yanada takomillashtirish yuqori samara beradi.

Respublikada mazkur muammolarni hal etishda kichik biznes eksport faoliyatini istiqbolli rivojlantirish marketing strategiyalarini ishlab chiqish, tashqi

³I.A.Karimov "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T.: O'zbekiston, 2011.-80b.

⁴www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari).

bozorlarga qilinadigan eksportga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan siyosiy, iqtisodiy omillarni tadqiq qilish yuzasidan ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan, hududlarda kichik biznes sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasini ishlab chiqish va foydalanish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda marketing faoliyatini boshqarish va rivojlantirish, marketing faoliyatini boshqarish va rivojlantirish, marketing strategiyalarini tashkil etish umumnazariy asoslari va masalalari ko'plab xorijlik olimlarning ishlarida yoritilgan. Bular qatoriga Bagiev G.L., Karpova S.V., Sinyaeva I.M., Zemlyak C.V., Sinyaev V.V., Gorfinkelya V.Ya., Devid.K., Siropolis.N., Muravev A.I., Ignatev A.M., Krutik A.B., Golubkov E.P., Rube V.A., Krupnov V.I., Filip Kotler, Maykl Porterva boshqa olimlarning ishlarini kiritishimiz mumkin.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish muammolari, shu jumladan, uning faoliyati va marketing tizimini o'rganish, ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari baholashning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha O'zbekiston olimlaridan S.S.G'ulomov ⁵, B.Yu.Xodiev ⁶, Yo.A.Abdulayev, R.Alimov, A.Sh.Bekmurodov ⁷, B.B.Berkinov, M.P.Boltaboev ⁸, Sh.N.Zaynutdinov,

⁵G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.:1998. -232 b

⁶Б.Ю. Ходиев, М.С. Қосимова, А.Н. Самадов “Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik” (Ўқув қўлланма). – Т.ТДИУ, 2010 й.

⁷Бекмуродов А.Ш., ва бошқалар. Ўзбекистон иқтисодиётни либераллаштириш йилларида. Кичикбизнес ва тadbirkorlik ривож – давр талаби. 3-қисм. –Т.: ТДИУ, 2005.

⁸ Boltabayev.M, Qosimova.M, Ergashxodjayeva.Sh, G'oyibnazarov.B, Samadov.A, Otajonov.Sh. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” (Darslik)-T. TDIU, 2011-yil.

A.F.Rasulov, M.L.Tursunxodjaev, M.S.Qosimova⁹, A.N.Samadov¹⁰, A.M.Qodirov, B.K.G'oyibnazarov, Sh.Ergashxadjajeva¹¹ va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Xususan, S.S.G'ulomov, B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltaboev, J.J.Jalolov¹², I.S.Xotamov¹³, B.K.G'oyibnazarov, A.F.Rasulov, B.B.Berkinov, M.A.Mahkamov, M.S.Qosimova, F.M.Nazarova¹⁴, M.L.Tursunxodjayev va boshqalarning ishlarida marketing faoliyatini rivojlantirish va boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasi nazariyasini keng yoritib berish, taxlil qilish va topilgan kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berish hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar qo'yiladi va hal etiladi:

-Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy marketing tamoyillari;

-Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda tashqi iqtisodiy faoliyat marketing faoliyatini ishlab chiqishning bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari;

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni;

⁹M.S. Qosimova, B.Yu. Xodiev, A.N. Samadov "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" (Ўқув қўлланма). – Т.ТДИУ, 2010 й.

¹⁰ Самадов А.Н. «Кичик бизнесни бошқариш» фанидан маърузалар матни. –Т.: ТДИУ, 2011.

¹¹ Эргашхужаева Ш.Ж. «Тадбиркорлик асослари» фанидан маърузалар матни. –Т.: ТДИУ, 2011.

¹²Jalolov J., Fattaxov A., Axmedov I., Xotamov I., Shadmankulov A., Jalolova D., Qosimov D., Azlarova A., Abdilakimov G. "Biznesmarketing" (Darslik).-Toshkent. 2009.

¹³ I.S.Xotamov, B.Sh.Hamroeva. "Marketing". (O'quvqo'llanma). 2012.

¹⁴Nazarova F.M., Karimova R.N. "Xalqaro marketing". (O'quvqo'llanma). - Toshkent, 2010 y.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish holati;

- Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik marketing faoliyatini tashkil etish holati;

- “Mikrokreditbank” OATB da kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasini takomillashtirishda valyuta muammosini xal etish masalalari;

- “Mikrokreditbank” OATB da tashqi iqtisodiy faoliyatni strategik yo’nalishlari;

- Nazariy va amaliy ma’lumotlarga tayangan holda kichik biznes sub’ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyalarini ishlab chiqishni takomillashtirish bo’yicha amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti. Bitiruv malakaviy ishida tadqiqot ob’ekti qilib, “Mikrokreditbank” ochiq aksiyadorlik-tijorat banki olingan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Kichik biznes sub’ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasi xususiyatlarini nazariy-amaliy va ustivor yo’nalishlarini o’rganish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asosi. O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning ustivor yo’nalsihlari va strategiyasini ishlab chiqishga bag’ishlangan asarlari, respublika hukumati tomonidan kichik biznes eksport faoliyatini rivojlantirishga oid ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlar va mamlakatimiz

va chet ellik iqtisodchi olimlarning korxona tashqi iqtisodiy faoliyatda marketing strategiyalarini ishlab chiqishga oid ilmiy ishlari tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi va "Mikrokreditbank" OATB ning me'yoriy hujjatlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasi nazariyasi asoslarida "Mikrokreditbank" OATB doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasini rivojlantirish yo'llari ko'rsatiladi va bankning strategik yo'nalishlari asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari ochib berilgan.

-kichik biznes sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasini ishlab chiqishning zamonaviy, ilmiy yondoshilganligi;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilganligi;

-kichik biznes sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasini bank tizmi asosida takomillashtirishning yollari ko'rsatib berilganligi va ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi;

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Kichik biznes sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasini ishlab chiqishni takomillashtirishda va uning samaradorligini baholashda qo'llanilishi va "Mikrokreditbank" tashqi

iqtisodiy faoliyatda kichik biznes sub'ektlariga ko'rastiladigan xizmatlarning diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, boblar bo'yicha qisqa xulosalar, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'limlaridan iborat.

I-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning zarurligi, ahamiyati v vazifalari

Tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning zarurligi, nazariy va huquqiy asoslari.

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar samarasiga ko'ra, iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, muhtaram prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganlaridek "Ishlab chiqarilayotgan jami mahsulotlarning aniqrog'I sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda".¹⁵

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankini tashkil etish to'g'risida" 2006 yil 5 maydagi PF-3750-son Farmoni bajarish yuzasidan hamda uning samarali faoliyatini tashkil etishni ta'minlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi №78-sonli karori bilan tashkil etilgan. Aksiyadorlik-tijorat "Mikrokreditbank" O'zbekistondagi yetakchi universal tijorat banklaridan biri bo'ladi.

"Mikrokreditbank"ning asosiy vazifalari:

Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga, fermer va dehqon xo'jaliklariga o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatini mustahkamlash va kengaytirishlari uchun mikrokreditlar berish, keng ko'lamdagi bank hamda konsalting xizmatlari ko'rsatish;

¹⁵Karimov I. A. Mamlakatimizni 2013 yildaijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariva-2014 yilgamo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarigabag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagima'ruza. Xalqso'zi, 2014 yil 18-yanvar.

Mikrokreditlar berish hamda mikrolizing yo`li bilan mikrofirmalar, oilaviy biznes va kasanachilik rivojlanishini rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash xisobiga tadbirkorlik sohasi kengayishiga ko`maklashish;

Qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan biznes-rejani, uning moliyaviy holatini, kreditni to`lash bo`yicha majburiyatlari ta`minlash manbalarini sinchiklab tahlil etish asosida mikrokreditlarning qaytarilishini ta`minlash;

Mikrokredit berish va mikrolizing bo`yicha xizmatlar ko`rsatishni kengaytirish uchun xalqaro moliya institutlari hamda yetakchi xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari, investisiya va grantlarini jalb etish;

Ayniqsa qishloq joylarda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga xizmat ko`rsatish uchun qo`shimcha imkoniyatlarni ta`minlaydigan filiallar va mini-banklar tizimi orqali moliyaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish.

Davlatimiz rahbarining ma`ruzasida islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish natijasida iqtisodiy o`sishning barqaror yuqori sur`atlari, inflatsiya darajasining pasayishi va xalq farovonligining oshishi tendensiyalari mustahkamlanganligi qayd etildi.

Eng avvalo, iqtisodiyotning barqaror va muvozanatlashtirilgan o`sishini ta`minlash, eng muhim tarmoqlarni yanada tarkibiy jihatdan o`zgartirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, shu jumladan, buni to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga amalga oshirish, ish haqlari va aholi turmushi sifatini muttasil oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay ish muhitini yaratish, xususiy mulkchilikni mustahkamlash, bank-moliya tizimida va kommunal xo`jalikda islohotlarni chuqurlashtirish ana shular jumlasidandir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2014-yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

Ularning qatorida yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Jizzax viloyatida 760 ming tonna portlandsement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish», «80 ming tonna rux konsentratini qayta ishlash bo'yicha rux zavodini rekonstruksiya qilish», «Mis eritish zavodida yangi sulfat kislota sexini qurish», elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini 50 megavattga oshirish maqsadida «Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini to'liq miqyosda modernizatsiya qilish», Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Mang'it» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ip-kalava yigiruv korxonasi tashkil etish» va boshqa obyektlarni tilga olish mumkin.

O'tgan yilda yiliga 25 milliard kub metr gazni uzatish imkonini beradigan Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvurining 1 ming 830 kilometr uzunlikdagi uchinchi tarmog'i ishga tushirildi.

Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Jizzax» maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to'liq respublikamiz mablag'lari hisobidan barpo etilmoqda.

Yo'l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish sanoatni jadal rivojlantirish va uning salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. 2014-yilda umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan 540 kilometr avtomobil yo'lini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. 116 kilometrdan iborat ikki polosali yo'l kengaytirilib, to'rt polosali qilib qayta qurildi, bu esa o'z navbatida ushbu yo'llarda qatnovni 3 barobar oshirish imkonini berdi.

O'tgan yili temir yo'llar qurish, rekonstruksiya qilish va elektrlashtirish, yuk va yo'lovchi tashiydigan temir yo'l transportini qayta tiklash va modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish maqsadida 630 million dollardan ziyod mablag' o'zlashtirildi.

Bu mablag'ning yarmidan ko'pi Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini barpo etish loyihasini jadal sur'atlarda davom ettirishga yo'naltirildi. Shu bilan birga, 240 kilometrlik temir yo'l qayta tiklandi, o'zimizda 650 ta yuk va 20 ta yo'lovchi tashish vagonlari ishlab chiqarildi, Qarshi temir yo'l vokzali rekonstruksiya qilindi. Toshkent – Samarqand va Samarqand – Toshkent yo'nalishi bo'yicha qatnaydigan «Afrosiyob» tezyurar poyezdida 2014-yilda 180 mingdan ziyod yo'lovchi o'z manziliga yetkazildi.

Aviatsiya transportida yuk tashish hajmi 126 million 300 ming tonna-kilometrni tashkil qildi yoki 2013-yilga nisbatan 8,5 foizga oshdi. 2014-yilda

«O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi dunyodagi 270 dan ortiq aviakompaniyani o‘zida birlashtirgan Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasining (IATA) teng huquqli a‘zosi bo‘ldi.

Navoiy shahri aeroporti negizida tashkil qilingan xalqaro logistika markazi Yevropa, Hindiston, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyoga aviatsiya orqali yuk tashishni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu markaz foydalanishga topshirilganidan buyon o‘tgan vaqt mobaynida 200 ming tonnadan ziyod yuk tashildi. Barchamizga ayonki, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta‘minlash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda.

2014-yilda bozor xizmatlari ko‘rsatish hajmi 15,7 foizga o‘sdı, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 53 foizdan 54 foizga oshdi. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 50 foizdan ortig‘i ushbu tarmoqda mehnat qilmoqda. Har yili yaratilayotgan yangi ish o‘rinlarining, avvalambor, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun tashkil etilayotgan ish o‘rinlarining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i aynan mazkur soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Bu borada xizmatlar tarkibi ham tubdan o‘zgarib borayotganini ta‘kidlash joiz. Mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan internet, kabelli televizion aloqa, masofaviy bank xizmatlari, qishloq xo‘jaligi texnikasi, avtomobillar va texnologik uskunalarni ta‘mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish kabi zamonaviy yuqori texnologiyalar asosidagi xizmat turlari aholi o‘rtasida tobora ommalashib bormoqda.

Soʻnggi besh yilda anʼanaviy maishiy va kommunal xizmatlar ulushi 16 foizdan 9,5 foizga tushdi, yuqori texnologiyalar asosidagi xizmatlar ulushi esa 21,2 foizga qadar koʻtarildi.

Yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmatlar orasida keyingi yillarda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari boshqa sohalarga nisbatan jadal rivojlanayotganini alohida taʼkidlash joiz. Ushbu xizmatlar hajmi soʻnggi besh yilda 3,3 barobar, oʻtgan yili esa 24,5 foizga oʻsdi.

Iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining alohida va muhim oʻrin tutishini hisobga olib, 2013-yilda 2013-2020-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar 2014-yilda mamlakatimizda barcha avtomat telefon stansiyalarini raqamli tizimga oʻtkazishni yakunlash uchun zamin yaratdi. Bu esa xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Aholi, jumladan, mamlakatimizning olis hududlarida yashayotgan aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Masalan, 2014-yilda yurtimizda, xususan, Qoʻngʻirot, Boysun, Uzun, Moʻynoq kabi olis tumanlarda 2 ming kilometrdan ziyod optik tolali aloqa tarmoqlari barpo etildi. Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin koʻpayib bormoqda. Bugungi kunda ular 10 million 200 ming kishidan oshdi yoki mamlakatimiz aholisining uchdan bir qismini tashkil etmoqda. Respublikamizda internetning oʻtkazuvchanlik darajasi 4 barobar oshirildi, internetga ulanish tezligi esa 1,5-marta ortdi. Shu bilan birga, undan foydalanish narxi 2013-yilga nisbatan 11,6 foizga kamaydi. Oʻtgan yili 500

dan ortiq yangi bazaviy mobil aloqa stansiyalari o'rnatilishi hisobidan aloqaning ushbu zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan tizimi abonentlari soni qariyb 20 million kishini tashkil etdi, ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi qariyb 26 foizga ko'paydi.

Ayni paytda qishloq joylarda xizmatlar sohasi hali-beri yetarlicha rivojlanmaganini ham aytish joiz. Qishloqda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi shahardagidan hali-hamon sezilarli darajada ortda qolmoqda. Ayni paytda qishloq joylarda aloqa xizmati, bank-moliya va kommunal xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini ham unutmaslik darkor.

Tadbirkorlik faoliyatini kreditlash tartiblari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohtlarning asl maqsadi inson manfaatlariga qaratilgan bo'lib, xalqimiz farovonligini oshirish va turmush tarzini yaxshilash borasida ahamiyatga molik ishlar qilinmoqda. Bunday ishlar tarkibida tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochilganligini yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bandlikni ta'minlash va holi daromadlarini oshirish imkonini bermoqda.

Mikrokreditlar kam ta'minlangan aholi vakillariga o'zlarining daromad keltiruvchi shaxsiy bizneslarini tashkil etishga ko'maklashish orqali:

- ushbu aholi vakillari daromadlarining salmoqli ravishda oshishga olib keladi va kamida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, oila farzandlarining ta'lim olishi va boshqa birlamchi extiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi; oila axvolining boquvchining betoblighi, noqulay ob-xavo sharoiti, mulkdan ayrilish va boshqa noxush xollarga bog'liqlik darajasini kamaytiradi;
- fuqarolarning ish bilan bandligini ta'minlaydi va ishsizlikni qisqartiradi;
- kishilarda istiqbolli kelajakka bo'lgan umidni uyg'otadi, ularning bizneslari rivojlangani sari o'zlarining ertangi kuniga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi;
- kam ta'minlangan aholi vakillarining qashshoq toifaga o'tib ketishi va undan kelib chiquvchi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-ruhiy og'ir oqibatlarining oldini oladi.

Mikrokredit olish istagidagi tadbirkorlik sub'ekti Mikrokreditbankning o'ziga qulay bo'lgan filiali yoki minibankiga murojaat etadi.

Tadbirkorlik sub'ekti bank tomonidan mikrokreditlar ajratish ba mikrolizing hizmatlari ko'rsatish uni qaytarish tartibi, biznes-reja tuzish qoidalari bo'yicha bepul tashkil etiladigan ikkita bazaviy seminarda ishtirok etishi majburiy hisoblanadi. Ushbu seminarlarda tadbirkorlar o'zlarini qiziqtirgan barcha

savollariga javob oladilar, bank va mikro kredit oluvchining huquq va majburiyatlari bilan tanishadilar.

Mikrokreditlar ikki yo`nalishda ajratiladi:
— Boshlang`ich (start) sarmoyani shakllantirish uchun;
— Biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag`larni to`ldirish uchun.

Boshlang`ich (start) sarmoyani shakllantirishga ajratiladigan mikrokreditlar:

Ushbu mikrokreditlar yiliga 3 foizlik stavka bo`yicha 18 oygacha bo`lgan muddatga tashkil topganiga 6 oydan oshmagan kichik tadbirkorlik sub`ektlariga quyidagi miqdorlarda ajratiladi:

— eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko`rsatayotgan tadbirkorlik sub`ektlariga;
— eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha mikrofirmalar va yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan dehqon xo`jaliklariga;
— eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha fermer xo`jaliklariga.

Biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag`larni to`ldirish uchun mikrokreditlar.

Mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo`jaliklari uchun:

— MIQDORI — eng kam oylik ish haqining 500 baravarigacha;
— MUDDATI — 24 oygacha;
— FOIZI — Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmagan foiz stavkasida.

Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi. Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi toboraortib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 foizdan 52 foizga o'sdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Bu haqda so'z yuritganda, sobiq ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanish holati mavjud emasligini alohida ta'kidlash lozim. Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq 2000-yildagi 53,3 barobardan bugungi kunda 7,8 barobarga tushdi. Bu o'rinda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mezoni hisoblangan bu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga ko'ra, 10 barobar qilib belgilanganini aytib o'tish lozim. Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalaniladi. Misol uchun, O'zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko'rsatkichi 0,40 dan 0,296 ga pasaydi. Bu natija, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35-0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi. Odamlarning daromadlari ortishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatdan o'zgarib bormoqda. Tadqiqotlarga qaraganda, bugungi kunda yurtimizdagi oilalarning 94 foizi xolodilniklar, 84 foizi turli oshxona elektr jihozlariga, 63 foizi kir yuvish mashinalari, yarmidan ko'pi komputer, changyutgich, mikroto'lqinli pechlarga ega, uchdan bir qismi esa konditsionerlardan foydalanmoqda. Mustaqillik yillarida aholining televizorlar bilan, ayniqsa, mutlaqo yangi avlod televizorlari – plazma ekranli rangli televizorlar bilan ta'minlanishi 1,6 barobar, yengil avtomobillar bilan

ta'minlanishi 3,5-marta oshgani ham oilalarimizning farovonligi yuksalib borayotganining yaqqol tasdig'idir. Bugungi kunda deyarli har ikki oiladan biri shaxsiy transport vositasiga ega va bu mashinalar aynan yurtimizda ishlab chiqarilgani barchamizga mamnuniyat va g'urur bag'ishlaydi. Qisqa vaqt ichida hayotimizga, deyarli har bir oilaga eng zamonaviy mobil telefonlarning bir necha yangi avlodi, noutbuklar, tyunerlar, DVD pristavkalari, sun'iy yo'ldosh orqali faoliyat ko'rsatadigan va kabelli televideniye, duxovkali elektr pechlar, muzlatgich kameralar, suv isitish boylerlari va boshqa mutlaqo yangi, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar kirib keldi. Bugun biz bu narsalarga unchalik e'tibor ham bermaymiz va ularni odatdagi buyumlar sifatida qabul qilamiz. Holbuki, yigirma yil avval bunday ashyolar haqida hech narsa bilmasdik, hozirgi kunda esa ularsiz hayotimizni tasavvur ham qilolmaymiz. Eng muhimi, ushbu mahsulotlarning aksariyatini mamlakatimiz korxonalarida o'zimiz ishlab chiqaryapmiz. Fuqarolarimizning uy-joy sharoitlari ham tubdan yaxshilanib bormoqda. Mamlakatimizning barcha hududlarida uy-joylar qurish sur'ati va ko'lami yil sayin kengaymoqda. Mustaqillik yillarida uy-joy fondining umumiy maydoni 1,9 barobar oshdi.

Aholi soni ko'payib borayotganiga qaramasdan, odamlarni uy-joy bilan ta'minlashda jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydonini 12,4 kvadrat metrdan 15,4 kvadrat metrga oshirishga erishildi. Uy-joy fondining deyarli barchasi xususiy mulk sifatida aholi tasarrufida ekanini aytish lozim. Vaholanki, ko'plab rivojlangan davlatlarda oilalarning yarmidan ko'pi ijaraga olingan xonadon va uylarda yashaydi. Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibda uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli davlat dasturining amalga oshirilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu dastur doirasida 2014-yilda 11 mingta yangi turar joylar barpo etildi.

Bugungi kunda shaharlar, ayniqsa, qishloqlarda barpo etilgan, shiftlari baland, xonalari shinam va yorug‘ yangi uylar pishiq g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, ularni bunyod etishda zamonaviy qurilish va tom yopish materiallaridan foydalanilmoqda, ular zarur xo‘jalik binolariga ega. Bunday qishloq uylari sifati va sharoitining qulayligi bilan hech bir jihatdan shahardagi uy-joylardan aslo qolishmaydi. Shaharlarimizni kompleks qurish bo‘yicha qabul qilingan dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Urganch, Qarshi, Termiz, Samarqand va boshqa ko‘plab shaharlarimiz qiyofasi tubdan o‘zgarib bormoqda.

Buyuk Britaniyaning nufuzli «Economist» jurnalining bergan bahosiga ko‘ra, O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahri obodligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140 shahar orasida 58-o‘rinni egalladi va jahon tasnifida yashash uchun eng qulay bo‘lgan yirik shaharlar qatoriga kiritildi.

2014-yilda ijtimoiy sohada ham chuqur sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Bu sohaning barqaror faoliyatini ta‘minlash va rivojlantirishga davlat byudjeti jami xarajatlarning qariyb 60 foizi yo‘naltirilmoqda. Ta‘lim sohasida o‘quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. O‘tgan yili hammasi bo‘lib 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so‘m sarflandi. Ushbu mablag‘larning 120 milliard so‘mdan ortig‘i ta‘lim muassasalarini o‘quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, komputer va multimedia vositalari bilan ta‘minlash uchun ajratildi. 2011-2016-yillarda oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta‘lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash va jihozlash bo‘yicha qiymati 230 milliard so‘mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti,

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O'zbekiston Milliy universitetida yangi o'quv binolari barpo etildi. 2014-yilda bir qator yangi institut va fakultetlar, o'quv-ilmiiy markazlar ochildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya fakulteti va hududlardagi tibbiyot oliy o'quv yurtlari negizida Andijon, Buxoro, Samarqand va Nukus shaharlarida filiallariga ega bo'lgan Toshkent davlat stomatologiya instituti tashkil etildi. Toshkent davlat sharqshunoslik institutida xitoyshunoslik fakulteti ochildi, shuningdek, ushbu institut qoshida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi tashkil qilindi. Janubiy koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida Inxa universiteti tashkil etildi. Mazkur oliy o'quv yurtida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda, dasturiy ta'minot mahsulotlari ishlab chiqarish, axborot tizimlari va komputer tarmoqlarini boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi. O'tgan yili oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning takomillashtirilgan tizimi joriy etildi, ya'ni test sinovlariga informatika bo'yicha savollar kiritildi, mutaxassislikka oid fanlar bo'yicha baholash ballari oshirildi. Bu esa oliy o'quv yurtlariga tanlagan kasbini hisobga olgan holda, eng yaxshi tayyorgarlik ko'rgan abituriyentlarni saralab olish imkonini beradi.

Sog'liqni saqlash sohasida qishloq vrachlik punktlarining faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqildi. Bunday tibbiyot maskanlarining sonini yanada optimallashtirish, zamonaviy diagnostika va tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash va ularning mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Optimallashtirish natijasida kamquvvatli va samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan 243 ta qishloq vrachlik punkti tugatildi.

Tajriba tariqasida Bo'stonliq, O'zbekiston, Shahrisabz, Xiva va Jomboy tumanlarida patronaj tibbiyot hamshirasining o'z funksional vazifalarini nechog'liq to'liq bajarishi va faoliyatining yakuniy natijalaridan kelib chiqqan holda, uning ish samaradorligini reyting asosida baholash tizimi joriy etildi. Bu yil ushbu tajribani mamlakatimizning yana 18 ta tumanida qo'llash mo'ljallanmoqda. Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi davlatimiz va jamiyatimizning eng muhim ustuvor vazifasi bo'lib qolmoqda. Bu borada skrining markazlari, viloyat ko'ptarmoqli bolalar shifoxonalari, shuningdek, ixtisoslashtirilgan pediatriya tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va zarur jihozlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Onalar va bolalar tizimli asosda tibbiy tekshiruvdan o'tkazilmoqda.

Faqat 2014-yilda 6 million 500 ming nafar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quvchilari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Bu esa kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularni samarali davolash imkonini bermoqda. Ana shunday amaliy ishlarimiz natijasida so'nggi o'n yilda rivojlanishida tug'ma nuqsonlari bo'lgan bolalar soni 1,3 barobar kamaydi. 6-15 yoshli bolalar orasida o'tkir yuqumli kasalliklar bilan og'rish 34,4 foizga, pnevmoniyaga chalinish 49,7 foizga, bronxit bilan xastalanish 32,8 va skolioz bilan kasallanish 32,7 foizga kamaydi. 2014-yilda 133 ta tibbiyot muassasasi yangitdan qurildi va rekonstruksiya qilindi. Guliston shahridagi viloyat onkologiya dispanseri, Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy markazi, Andijon shahridagi ko'ptarmoqli viloyat tibbiyot markazi, Nukus shahridagi Respublika silga qarshi kurash dispanseri va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ushbu maqsadlar uchun byudjetdan 400 milliard so'mdan ortiq mablag' va qariyb 30 million dollarlik xorijiy kredit va grant mablag'lari yo'naltirildi. Koreya Respublikasi bilan yaqin

hamkorlikda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari hududida yagona bo'lgan, eng yuqori texnologiyalar asosidagi tibbiyot asbob-uskunolari bilan jihozlanadigan ko'ptarmoqli zamonaviy bolalar tibbiyot markazi qurilishi boshlanganidan xabaringiz bor, albatta. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bu borada sport inshootlarini har tomonlama rivojlantirish va ularni zamonaviy inventarlar bilan jihozlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. 2014-yil mobaynida faqat Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari hisobidan 18 ta namunaviy sport obyekti va 73 ta maktab sport zali barpo etildi, 24 ta obyektida qariyb 100 milliard so'mlik rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilganini qayd etish lozim. Bugungi kunda O'zbekistonda 2 millionga yaqin farzandlarimiz, shu jumladan, 840 mingdan ortiq qiz bolalar sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sportchilari erishayotgan g'alabalar tobora ko'payib bormoqda. 2014-yilda sportchilarimiz 849 ta medalni qo'lga kiritdi, ularning 266 tasi oltin medallardir. Bu haqda gapirganda, o'tgan yilning kuzida Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan, 45 davlatdan 13 ming sportchi qatnashgan XVII Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz 61 ta, jumladan, 12 ta oltin medalni qo'lga kiritib, O'zbekiston terma jamoasi eng kuchli o'nta mamlakat qatoridan joy olganini mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardim. Sportchilarimiz ana shunday yutuqlari bilan Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga munosib hissa qo'shdilar va ularning qo'lga kiritgan marralari bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta. Aholi bandligini ta'minlash, avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha zarur sharoitlar yaratish ijtimoiy siyosatimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya

infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014-yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'zni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e'tiborlidir. O'tgan yilda mamlakatimiz ta'lim muassasalarining 600 mingdan ziyod bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi. Shunisi quvonarliki, yoshlarimizning aksariyat katta qismi o'z kelajagini kichik biznesda ko'rmoqda.

O'zingiz o'ylang, bir yilning o'zida shuncha yoshlarimizni, o'zimizning farzandlarimizni hayotda o'z o'rnini topishi uchun sharoit yaratib, qo'llab-quvvatlaganimiz – bu bizning eng katta yutug'imiz emasmi? Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, "Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?" degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda "Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi, yuksak marralarni egallashimiz kerak?" degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim.

Bu borada, ish beruvchilar va o'quvchilarni keng jalb etgan holda, mehnat yarmarkalari, biznes g'oyalar tanlovlari o'tkazilayotgani hamda ularning g'oliblariga o'z xususiy ishini boshlash imkonini beradigan imtiyozli kreditlar ajratilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z biznesini yo'lga qo'yishga qaror qilgan kollej bitiruvchilariga qariyb 200 milliard so'mlik imtiyozli mikrokreditlar ajratildi. Bu 2013-yilga nisbatan 1,4 barobar ko'pdir.

Tadbirkorlik faoliyatini kreditlashdagi mavjud muammolar.

Tadbirkorlik faoliyatini maqsadli va samarali kreditlash davr talabidir. Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan jarayonlar va birinchi navbatda, qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani, jahon bozorlaridagi vaziyatning tez o'zgarayotgani, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari, dunyoning ko'plab davlatlarida investitsiya faolligining susayishi va o'sish sur'atlarining pasayishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta.

Shundan kelib chiqib, 2015-yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Biz o'z oldimizga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni 11,7 foizga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini 11 foiz va nooziq-ovqat tovarlarini 12,1 foizga ko'paytirish, ushbu mahsulotlarni chakana savdo tarmog'i orqali sotishni 14,2 foizga oshirish vazifasini qo'ymoqdamiz.

Joriy yilda xizmat ko'rsatish sohasini yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish mo'ljallanmoqda. Xizmatlar ko'rsatish hajmini 15,6 foizga oshirish va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54,5 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda.

Ayni paytda inflatsiya darajasi 5,5 – 6,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu 2014-yilga qaragandasezilarli darajada pastdir.

2015-yilda koʻzda tutilayotgan kapital qoʻyilmalar hajmi AQSh dollari hisobida 15 milliard 960 milliondollarini yoki 2014-yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,1 foizga yetadi.

Ushbu mablagʻlarning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish obyektlari qurilishiga, 43,1 foizi asbob-uskunalar sotib olishga yoʻnaltiriladi. Chet el investitsiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qoʻyilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga koʻpayadi.

Yuqori iqtisodiy oʻsish surʼatlari har tomonlama chuqur va puxta oʻylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali taʼminlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning ragʻbatlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

Birinchi navbatda amalga oshiriladigan vazifalar qatoriga daromad soligʻi stavkasini 7,5 foizga kamaytirish kiradi. Shu bilan birga, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun yagona soliq toʻlovi stavkasi, sanoat korxonalarida boʻlganidek, 6 foizdan 5 foizga tushiriladi.

2010-yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, davlat va ijtimoiy institutlar hamda sud tizimini isloh etish borasidagi vazifalarni izchil amalga oshirish eng ustuvor yoʻnalish boʻlib qolayotganini alohida taʼkidlash lozim.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini taʼminlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish

o‘rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so‘z yuritish mumkin emas.

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o‘shishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo‘lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo‘naltirilgan holda qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash zarur.

Ma‘lumki, O‘zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko‘p marotaba boshidan kechirgan.

Shu bilan birga, to‘qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta‘minlash, bo‘yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o‘zlashtirish asosida, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz.

Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko‘plab rezerv va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin.

Bu o‘rinda gap, avvalo, dastlabki xomashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo‘lgan tayyor to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy

kimyo tovarlari, qurilish va pardozlash materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida bormoqda.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda tegishli vazirlik va idoralar, uyushmalar, kompaniyalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ishtirokida 2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va qabul qilsin.

Ikkinchidan. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifadir. Barqaror iqtisodiy o'sish va mamlakatimizning kelajak istiqboli, aholining hayot darajasi va sifati ko'p jihatdan ayni mana shu eng ustuvor vazifaning qanday hal etilishiga bog'liq.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida xususiy mulk va investitsiyalar daxlsizligini ta'minlashning ishonchli huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish va ularning himoyasi uchun ko'p ish qilindi. Mulkdorlarga zarur sharoit va kafolatlar berish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish sohasi singari tarmoqlar, uy-joy fondi to'liq xususiy mulk egalari tasarrufiga o'tkazildi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan, oziq-ovqat, tikuvchilik mahsulotlari, to'qimachilik, charm-poyabzal, mebel va farmatsevtika sanoati tarmoqlarida davlatning ulushi anchaga kamaytirildi.

Bugun hech kimga sir emaski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik faoliyatining amaliyoti xususiy mulkning davlat mulkiga nisbatan har tomonlama ustunligini ko'rsatmoqda.

Xususiy korxonalarda sidqidildan mehnat qilishga undaydigan omillar va shaxsiy manfaatdorlik darajasi va eng asosiysi, o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijasi uchun mas'uliyat hissi butunlay boshqacha ekani barchamizga yaxshi ma'lum.

Xususiy sektorda mablag'lardan samarali foydalanilmoqda. Bu sohada yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarish tufayli imkon qadar ko'p daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalarga erishilayotganini ta'kidlash joiz. Bularning barchasi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalarning asosiy maqsadidir.

Ming afsuski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida hali-hanuz turli ma'muriy g'ov va to'siqlar saqlanib qolmoqda, mansabdorlar tomonidan ularning qonuniy manfaat va huquqlari buzilayotgani bilan bog'liq ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Shu sababdan biz xususiy mulk munosabatlari borasidagi qarashlarimizni mutlaqo o'zgartirish masalalarini qayta ko'rib chiqishimiz zarur. Shu asosda mustahkam huquqiy bazani xususiy mulk manfaatlariga moslashtirishimiz, mulk huquqining kuchli yuridik norma va kafolatlari tizimini shakllantirishimiz, davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy tayanchiga aylanadigan xususiy mulkdorlarning keng qatlamini yaratishimiz kerak.

Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish yo'lidagi g'ov va to'siqlarni olib tashlashga qaratilgan chora-tadbirlar qatorida, avvalambor, xususiy tadbirkorlar uchun xomashyo resurslaridan foydalanish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish, uni yanada soddalashtirish, ochiq va

oshkora bo'lishini ta'minlash zarur. Buning uchun esa resurslarni ochiq birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini kengaytirish lozim.

Etakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan muntazam chop etiladigan, birinchi navbatda, Jahon bankining "Biznes yuritish" deb nomlangan ma'ruzasida e'lon qilinayotgan bizning biznes yuritish bo'yicha ko'rsatkichlarimizni tizimli asosda chuqur o'rganish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga doir aniq chora va takliflar ishlab chiqish, avvalo, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va boshqa manfaatdor idoralarning muhim vazifasiga aylanishi kerak.

Tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Shuni tan olishimiz kerakki, xususiy mulkni rivojlantirish uchun uning ochiqlik darajasini va bu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasini aniqlash borasidagi baholash mezonlari haligacha ishlab chiqilmagan. Iqtisodiyot vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Markaziy bank, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa iqtisodiy idoralar bu masala bilan jiddiy shug'ullanishi zarur.

Ishonchim komilki, bu vazifalarning amalga oshirilishi, o'z navbatida, xususiy biznesni rivojlantirish, jamiyatimizdagi barqarorlikning mustahkam asosi

hisoblangan mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishda va mustahkamlashda rag'batlantiruvchi yangi omil va imkoniyatlar yaratadi.

Uchinchi. Iqtisodiyotimizda davlatning ishtiroki qay darajada ekanini tanqidiy baholash, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish zarurligini alohida ta'kidlashni o'rinli deb bilaman.

Iqtisodiyot tarmoqlarida davlat ulushining mavjudligi va samaradorligini, boshqacha aytganda, "iqtisodiyotda davlat ishtiroki"ni har tomonlama tanqidiy tahlil qilish va shu asosda iqtisodiyot tarmoqlarida xususiy sektor ishtirokini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha vazifalarimizni belgilab olish vaqti keldi.

Birinchi navbatda, avvalo, zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va iqtisodiy nochor, mahsulotlariga talab yo'qligi sababli to'la quvvat bilan faoliyat ko'rsatmayotgan davlat korxonalarini professional xorijiy investorlarga ularni qayta tiklash va ushbu korxonalar negizida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyati bilan "nol" qiymatida sotish zarur.

Bu o'rinda so'z iqtisodiyotning real tarmoqlaridagi texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish va ularning raqobatdoshligini oshirish talab etiladigan korxonalardagi davlat aktivlari haqida bormoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu toifaga kiradigan tarmoqlar, birlashma va korxonalarning ro'yxati tasdiqlanishi lozim.

Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi davlat ulushi mavjud bo'lgan barcha korxona va obyektlarni yana bir marta tanqidiy nuqtai nazardan qayta inventarizatsiya qilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'tgan yili qabul qilingan «Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga qanday obyektlar kiritilmaganini aniqlashi

va real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida davlat ishtirokini tubdan qisqartirishni nazarda tutgan holda, 2015-2016-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha yangi dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi zarur.

To'rtinchidan. Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Eng avvalo, korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda ham mulkchilikning mazkur shakli tobora katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida ayni paytda respublikamizda 1 ming 100 dan ortiq aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi va faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy ustav kapitali 11 trillion 700 milliard so'mdan ortiq bo'lib, so'nggi o'n yilda 5,3 barobar o'sdi.

Bugun shuni tan olish zarurki, aksiyalashtirish jarayonini rivojlantirish ko'lamining o'sib borayotgani korporativ boshqaruv va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidan tushadigan daromadlarni taqsimlash tizimi hamda xususiylashtirish jarayonining boshqa bir qator yo'nalishlarida hal etilmagan ko'plab muammolar mavjudligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Bu, ayniqsa, aksiyalar paketlariga davlat egalik qilayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga taalluqlidir. Bunday jamiyatlarda aksiyadorlar, ayniqsa, minoritariylar kam hajmdagi aksiyalarga egaligi va aksiyalar paketlarining

tarqoqligi tufayli boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonidan amalda chetda qolmoqda.

Buning natijasida ishlab chiqarish ustidan boshqaruvni ilgariidek direktorlik korpusi amalga oshirmoqda. Ko'p hollarda direktorlik korpusi, shuni ta'kidlashimiz kerakki, o'z faoliyatida hali-beri eski tizim qolipidan chiqolmasligi, ishni zamon talab qiladigan usulda tashkil qilishdan uzoq bo'lishi ko'zga tashlanadi. Bunday holat boshqaruvchi kadrlarning yuqoridan buyruq kutib o'tirishiga, sustkashligi va tashabbus ko'rsatmasligiga sabab bo'lmoqda.

Bugun mamlakatimizda shunday amaliy tajriba to'plandiki, unga ko'ra, O'zbekiston sharoitida yurtimiz sarmoyadorlari bilan bir qatorda chet ellik investorlar aksiyalarga ega bo'lgan mulkchilik shakli eng maqbul bo'lib, har jihatdan o'zini oqlamoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda 90 dan ortiq davlatning xorijiy investorlari ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxona muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ushbu kompaniyalar O'zbekistonda ham, uning tashqarisida ham yaxshi ma'lum.

O'zbekiston hududida to'liq chet el kapitali va korporativ boshqaruvning xorijiy usullariga asoslangan korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Mazkur xorijiy kompaniyalar tajribalarini chuqur o'rganishimiz va ularning tahlili asosida korxonalarimiz uchun korporativ boshqaruvning namunaviy tuzilmalarini yaratishimiz, real iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimini ayni shu asosda isloh qilgan holda, ularni amaliyotga faol joriy qilishimiz zarur.

Allaqachon o'z umrini o'tab bo'lgan, boshqaruvning sovet davriga xos eski va yaroqsiz rejali-taqsimot tizimi va lavozimlar nomenklaturasidan qat'iy voz kechishimiz, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan tijorat direktori, moliya direktori, mijozlar bilan ishlash va xaridlar bo'yicha loyiha menejeri va boshqa yangi lavozimlarni xalqaro amaliyotga mos ravishda, ularning mansab majburiyati va vazifalarini aniq belgilagan holda, keng joriy etishimiz lozim.

Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi barcha manfaatdor tuzilmalar ishtirokida asosiy lavozim va kasblarning yangi klassifikatorini ishlab chiqishi kerak. Aynan ana shunday klassifikator bugungi yangi avlod professional kadrlarini tayyorlashning asosiy mezoniga aylanishi darkor.

Beshinchidan. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishningeng muhim manbai va omilidir.

Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealar mavjud mahalliy xomashyo bazasi asosida import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlay olishini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish borasida to'plagan tajribamiz bizning tashqi omillarga bog'liqligimizni kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorlarimizni zarur iste'mol tovarlari hamda butlovchi mahsulotlar bilan to'ldirish, tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, valyuta resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha muhim rol o'ynashini amalda tasdiqlamoqda.

Sanoat ishlab chiqarishida mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmining jadal o'sib borayotgani buning amaliy tasdig'idir. 2005-yilda mahalliyashtirilgan mahsulotlar 9,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda bu ko'rsatkich qariyb 20 foizga yetdi.

Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga barcha manfaatdor vazirlik, idora, uyushma va kompaniyalarni keng jalb etgan holda, 2015-2019-yillarga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni mahalliyashtirish va ishlab chiqarish bo'yicha dastur tayyorlash vazifasi topshiriladi.

II-Bob. Tijorat banklarida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning hozirgi holati va amaliy jihatlari.

2.1. OATB “Mikrokreditbank” Koson filialida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning hozirgi holati va amaliy jihatlari.

Qashqadaryo viloyatining Koson tumani 1926-yilda tashkil etilgan bo’lib, umumiy yer maydoni 1.8 ming kv.km.ni, viloyat markazigacha masofa 30 kmni tashkil etadi. Mustaqillik dastlabki yillaridan boshlab, iqtisodiyotning ushbu sektorini rivojlantirishning zarur me’yoriy-qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, ularni samarali oshirish mexnizmi shakllana boshladi va uni davlat tomonidan keng miqyosda qo’llab quvvatlash tizimi vujudga keltirildi. Prezident I.A.Karimovning bevosita tashabbusi bilan boshlangan iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi belgilab olindi. Bunda yutboshimiz ta’kidlaganidek: “Biz kichik, o’rta va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqrishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, ayni vaqtda uning aholi farovonligi va daromodlari ortishida, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylanishiga erishmog’imiz’lozim.”¹⁶

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 17-sentyabrda “O’zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyada “...20yil avval O’zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli yo‘q edi, bugun esa mavjud barcha xo‘jalik sub’ektlarining 90 foizdan ortig‘ini kichik biznes korxonalari tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki

¹⁶ И. Каримов. “Асосий вазифамиз-Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир.”. Т. Халқ сўзи. 30.01.2010 йил. 8бет.

mahsulotning 54 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 22 foizi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda”¹⁷-deb ta’kidlab o‘tdi.

Prezident I.A.Karimov bevosita tashabbusi bilan boshlangan iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonining olti ustivor yo‘nalishidan biri qilib kichik biznes sohasini erkinlashtirish vazifasi belgilab olindi¹⁸.

Bu gaplar darhaqiqat rostdir, zero mustaqil bo‘lmagunimizcha bizda xususiy mulkchilik to‘g‘risida umuman tushuncha mavjud emasdi. Faqatgina mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida ustuvor masala sifatida yondashilmoqda.

Shu jihatdan, xozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

Statistik ma’lumotlarga murojat qiladigan bo‘lsak 2012-yil 1-oktyabr holatiga ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes sub’yektlarining soni (fermer xo‘jaliklaridan tashqari) 249 915 tani tashkil qilgan. 2012-yil 1-yanvar holatiga ro‘yhatga olingan kichik biznes sub’yektlarining soni (fermer xo‘jaliklaridan tashqari) 231 717 tani tashkil etgan. Bu esa 10 oy ichida yana 18 198 ta yangi kichik biznes sub’ektlari tashkil topganidan dalolat beradi.¹⁹

¹⁷“O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiya. 17 Sentyabr, 2012-yil.

¹⁸www.press-service.uz. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati)

¹⁹www.stat.uz. 2012-yil.

Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotgan sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqrishga sifatchilikni oshirish; soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Mustaqillik yillarida kichik biznes sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000-yilda yalpi ichki

mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008-yilda bu ko'rsatkich 48,2 foizni, 2009-yilda 50,1 foizni, 2010-yilda 52,5 foizni, 2011-yilda 54 foizni, 2012-yilda esa 54,6 foizni tashkil etdi yoki 2000-yilga nisbatan 23,6 foizga o'sdi.

2.1.1-jadval.

“Mikrokreditbank” OATB Koson filialining 2011-2013- yillardagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.

(mln so'mda)

№	Ko'rsat kichlar nomi	Filial bo'yicha				
		20	20	20	Farq (+;-)	
		11 yil	12 yil	13 yil	20 11 yilga nisbatan	20 12 yilga nisbatan
1	2	3	4	5	6= 5-3	7= 5-4
1.	Mijozla r soni (ta)	10 02	11 90	13 70	+3 6.7	+1 5.1
	Shunda n, yuridik shaxslar	85 3	90 5	10 12	+1 8.6	+1 1.8

2.	Ajratilgan kreditlar, mln so'm	21 242	28 235	41 478	+9 5.3	+4 6.9
3.	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ming dona)	15 282	16 584	20 990	+3 7.3	+2 6.7
4.	Yaratilgan yangi ish o'rinlari (ming kishi)	16 677	21 467	26 133	+5 6.7	+2 1.7

kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan mikrokreditlar 2009-yilda 322 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa 2011- yilda 752 milliard so'mni tashkil etgan.

Davlat dasturiga muvofiq, turli soha va yo'nalishlar uchun kreditlar ajratish istiqbolli ko'rsatkichlarning bajarilishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar hukumatlarining 143,4 million AQSH dollari miqdoridagi imtiyozli kredit liniyalari va grantlari o'zlashtirildi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotganligi hisoblanadi. Xususan, 2010- yilda kichik biznes subyektlari uchun belgilangan yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirilgan bo'lsa, 2011-yilda esa bu ko'rsatkichni 6 foizga

“Mikrokreditbank” OATB Koson filialida 2013 yilda mijozlarga ajratilgan

kreditlar tarkibi

T/r	Mijozlar soni	Ajratilgan kreditlarning nomi	Ajratilgan kredit miqdori, (so‘m)
1.	5	Iste’mol va ipoteka kreditlari	117076000,0
2.	2	Moliyaviy lizing	43428000,00
3	40	Uz mablag kredit	1489308644,00
4	10	PK 308 kredit	15000000,00
5	15	Ta’lim kredit	64509400,00
6	621	Mikrokredit	4837265000,00
7	35	Mikrolizing	1653850000,00
8	129	G‘alla 2014	1215228402,00
9	2	Jahon banki	235000000,00
10	859	Jami	9670665446,00

tushirish mo'ljallangan. 1996-2011-yillar mobaynida kichik biznes subyektlari uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 6 foizga yoki 6,3 martaga qisqardi.

Shuningdek yuqorida takidlab o'tganimizdek mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan bir qator farmonlar va qarorlar qabul qilindi.

Tahlillardan ko'rinadiki, bank bank xizmatlaridan foydalanish darajasi yildan yilga oshib bormoqda. Chunki mamlakatimizdagi deyarli barcha tijorat banklari yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan "barqaror" reyting darajasini olishga erishgan bo'lib, banklarimiz tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar xalqaro talablar darajasida samarali tashkil etilmoqda.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014-yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.

Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014-yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi.

Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013-yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3-martadan ziyod oshdi.

So'nggi yillar davomida «Mudis», «Standart end Purs» va «Fitch reytings» kabi yetakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2011-yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko'rildi.

O'tgan 2014-yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli bu borada tobora oshib bormoqda.

2014-yilda mazkur Jamg'arma tomonidan 2 ming 400 ta tadbirkorlik subyektiga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy,

moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatildi. Jamg'arma ko'magida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzildi. Mazkur shartnomalar asosida o'tgan yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilindi.

Jamg'arma tomonidan tadbirkorlarga tashqi bozorlarni o'rganish va chet ellik sheriklarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, shuningdek, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat berishga oid hujjatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha faol yordam berilmoqda.

Shu borada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz.

Mulknii ro'yxatga olish, yer uchastkalari ajratish, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish, qurilishga ruxsat berish va elektr ta'minoti tarmoqlariga ulanishda «yagona darcha» tamoyilini amaliyotga joriy etish tobora kengayib bormoqda.

Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlarisezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda.

Sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko'p soni ilgari 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani kichik biznesni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo'ldi.

2014-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion soʻmdan ortiq yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar koʻp, shu jumladan, 2 trillion soʻmga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi. Bu oʻtgan yilga qaraganda 39 foiz koʻpdir. Soʻnggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar koʻpaydi.

Xususiy tadbirkorlarning xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, bunday mahsulotlarni birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini koʻpaytirish hisobidan sezilarli ravishda kengaytirildi. Masalan, 2014-yilda ular tomonidan Respublika tovar-xomashyo birjasida qariyb 3trillion soʻmlik yoki 2013-yilga nisbatan 1,6 barobar koʻp xomashyo va materiallar sotib olindi. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlar birja savdolari orqali oʻzlari ishlab chiqargan 1 trillion 500 milliard soʻmlik mahsulotni sotdi, bu koʻrsatkich 2013-yilga qaraganda 1,7 barobar koʻpdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ragʻbatlantirish boʻyicha koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida oʻtgan yili, fermer va dehqon xoʻjaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi, ularning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000-yilga nisbatan 2 barobar koʻpdir.

Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000-yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga oʻsdi.

2014-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish oʻrni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish oʻrinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band boʻlgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000-yilda bu koʻrsatkich 49,7 foizga teng

edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan, xarid qobiliyati bo'yicha hisoblanadigan yalpi ichki mahsulot hajmiga qarab aniqlanadigan iqtisodiy rivojlanish borasidagi yangilangan reytingda O'zbekiston dunyoning 190 ta davlati orasida 2010-yildagi 72-o'rindan 66-o'ringa ko'tarildi.

Mamlakatimiz 2014-yilda biznesni yuritish sharoiti bo'yicha reytingda 8 pog'onaga, soliqqa tortish borasida esa 61 pog'ona yuqoriga ko'tarildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining bahosiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yilda biznes yuritishni yengillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha yetakchi o'nta mamlakat qatoridan joy oldi.

Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi.

2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Investitsiya dasturini amalga oshirishda korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarning yildan-yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi. Birgina o'tgan yilda bunday investitsiyalar hajmi 10,3 foizga o'sib, 4 milliard 300 million dollarni yoki jami investitsiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi.

O'tgan yili tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyati ham kengaydi. Ular tomonidan 1 milliard 700 million dollar yoki 2013-yilga nisbatan 20 foiz ko'p investitsiyalar yo'naltirildi.

Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalar xarid qilishga sarflandi.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligini ta'minlashdagi rolga alohida e'tibor berib, "Hisobot yilida yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash masalasini hal qilish ham e'tiborimiz markazida bo'ldi. Hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o'rnining 68 foizdan ko'prog'i qishloq joylarda tashkil etildi. Takidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizdan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, 28 foizdan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi"²⁰ – deb alohida ta'kidladi.

"Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, bugungi kunda respublikamizda jami band bo'lganlarning 20 foizi davlat, 80 foizi nodavlat, shuningdek, 74 foizi xususiy sohada mehnat qilmoqda. Ushbu statistik raqamlar tahlili davlat korxonalarida

²⁰2012

Йил ватанимиз тараққиёти ниянги босқичга кўтарилган йил бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўнашларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. // Халқсўзи, 2012 йил 20 январь, №14 (5434)

“Mikrokreditbank” OATB Koson filiali tomonidan kichik biznes subyektlari
faoliyatini rivojlantirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar tahlili

T/r	Yoʻnalish nomi	Yillar						2013yildagi oʻzgarish 2011 yilga nisbatan (+,-), mln.soʻm
		2011		2012		2013		
		Mijoz soni	Summasi mln. soʻm	Mijoz soni	Summasi mln.soʻm	Mijoz soni	summasi mln.soʻm	
1.	Asalarichilikni rivojlantirish uchun	4	19,90	14	21,8	1	24,00	+4,1
2.	Baliqchilikni rivojlanti-rish uchun	2	16,30	5	34,90	4	52,9	+36,6
3.	Boshqalar	70	842,20	132	1268,20	42	812,60	-29,6
4.	Dehqonchilik	7	151,90	15	90,80	15	105,90	-46,0
5.	Issiqxona	33	193,40	54	295,00	10	72,10	-121,3
6.	Kartoshkachilik	22	18,10	38	126,20	58	432,90	+414,8
7.	Minitexnolo-giya	2	110,20	5	190,00	6	193,90	+83,7
8.	Parrandachilik uchun	18	55,30	38	68,90	6	164,00	+108,7
9.	Savdo	8	90,00	17	180,60	18	608,60	+518,6
10	Xizmat koʻrsatish	9	121,00	21	113,80	18	698,70	+577,7
11	Chorvachilik uchun	160	688,00	184	789,50	80	782,30	+94,3
12	Jami	335	2306,3	523	3179,7	258	3947,9	+1641,6
			2489,70		3994,80		3274,20	-115,5

ishlovchilarni soni qisqarib, xususiy sohada bandlikni ortishi yuz berayotganligini ko'rsatadi. Bu esa respublikamiz hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi, shuning asnosida aholining bandligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohatlarni izchillik bilan amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.”²¹

O'tgan davr ichida, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiyotning mazkur sohasiga doir qator qonunchilik hujjatlari, xukumat qarorlari qabul qilindi. Qabul qilingan farmonlar va qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tomon yuz tutishida kata o'rin egalladi. Bu hujjatlar ham, o'z navbatida, yil sayin hayotga mos ravishda o'zgartirilib borilmoqda. Mikrokreditlashning yangi tartibi, litsenziyalash, ro'yhatga olish hamda soliq solishning soddalashtirilishi mamlakatda kichik biznes sub'ektlari faoliyati va uni rivojlantirish uchun iqtisodiy muhitni ancha yaxshiladi. Bularning barchasi kichik korxona va xususiy tadbirkorlarning ko'payishi, erkin va keng faoliyat yuritishini ta'minlash hamda ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir.

²¹www.press-service.uz. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati) 2013-yil.

2.2. OATB “Mikrokreditbank” Koson filialida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning amaliy jihatlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2011-yil 11-martda imzolangan PQ-1501-sonli Qarori, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”²²2011-yil 24- avgustda chiqarilgan PF-4354-sonli Farmoni va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy xujjatlarga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berildi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirildi.

Hususan:

-Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlar ajratish haqidagati arizalarini ko'rib chiqish muddati uch bank ish kunidan oshmaydigan muddat qilib belgilandi;

-Tijorat banklariga kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq harajatlarni hisobga olsih huquqi berildi;

-Kichik biznes sub'ektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada xisobvara q ochgani uchun to'lov undirish bekor qilindi;

-Imtiyozli kreditlash hajmini kaengaytirishni rag'batlantirish maqsadida tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari

²²www.lex.uz va “Norma” Ахборот тизими 2013й.)

hisobidan kreditlar ajratishdan oladigan daromadlari 2016- yilning 1-yanvariga qadar foyda solig'idan ozozd qilindi.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi

	Sanoat mahsuloti	Qishloq xo'jaligi mahsuloti	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Qurilish ishlari	Chakana savdo aylanmasi	Aholiga pullik xizmat ko'rsatish	Yuk tashish	Yuk aylanmasi	Yo'lovchi tashish	Yo'lovchi aylanmasi
Jami	10,1	99,5	14,8	73,9	36,0	55,3	72,5	87,2	81,6	87,0
Qarshi shahar tumanlar:	62,4	97,3	10,7	62,7	23,7	58,6	75,3	88,5	81,2	89,0
G'uzor	0,4	99,0	7,1	77,1	45,6	52,7	70,2	85,4	81,3	87,1
Dehqonobod	3,5	98,7	8,6	88,6	40,6	54,3	74,8	86,5	80,3	86,5
Qamashi	25,3	99,5	40,1	95,2	49,0	56,9	73,7	86,7	80,7	83,4
Qarshi	21,5	99,5	61,6	92,1	69,9	53,9	73,3	87,8	81,8	86,6
Koson	13,1	100,0	64,2	75,8	40,4	55,5	72,5	86,1	86,2	88,8
Kitob	66,2	99,9	70,2	93,7	36,4	56,9	76,0	88,5	82,1	87,4
Mirishkor	10,3	99,9	11,2	96,5	36,8	53,2	68,7	85,6	81,0	86,2
Muborak	0,3	98,6	1,8	28,6	67,4	51,8	71,9	87,3	81,9	88,5
Nishon	11,8	98,0	5,5	56,0	30,8	53,1	68,0	86,3	83,8	85,9
Kasbi	6,1	99,8	47,0	85,2	47,0	53,3	69,9	87,4	82,8	81,7
Chiroqchi	40,9	99,9	48,3	82,5	28,6	54,6	69,0	86,3	78,6	85,7
Shahrisabz	35,3	99,9	47,1	78,9	52,7	56,4	72,7	88,4	80,7	88,8
Yakkabog'	45,7	100,0	49,6	82,1	29,7	54,9	71,5	87,7	81,4	86,8

Bunga asosan, joriy yilda imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari xisobidan kreditlar 1,3 barobarga ko'paytirilib, ularning hajmini 24 milliard so'mdan oshirish choralari ko'rildi.

Ushbu kreditlar asosan uzoq va chekka, shuningdek, ortiqcha mehnat resurslariga ega bo'lgan tuman va shaharlarda joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Olib borilgan salmoqli ishlar natijasida 2011-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2010- yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshib, 4041 milliard so'mni tashkil etdi va mazkur mablag'lar hisobiga hududlarda 291 mingtadan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. (

2.3. OATB “Mikrokreditbank” Koson filialida tadbirkorlik faoliyatini kreditlashga ta’sir etuvchi omillar tahlili.

Firmaning tashqi iqtisodiy faoliyat marketing faoliyatidagi asosiy vazifa iste’molchilar talabini firmaning tijorat manfaatlariga mos holga keltirishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat marketingning maqsadi firmaning tashqi bozordagi ijobiy imidjini yaratish va qulay natjalarga erishish hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat marketingning asosiy tamoyili ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini chet ellik iste’molchilarning haqiqiy talab va istaklariga yo’naltirishdir.

Bu tamoyildan bir qator talablar kelib chiqadi:²³

xalqaro bozorni bilish, mazkur tovar(xizmat)ga talab dinamikasi va holatini har tomonlama o’rganish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va xo’jalik qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida olingan ma’lumotlardan foydalanish;

korxona faoliyati samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishni bozor talablariga maksimal darajada moslashtirish, iste’molchilar kutayotgan tovarlarni, ya’ni sotilayotgan narsani ishlab chiqarish;

bozor va iste’molchilar talabiga uni korxona uchun zarur yo’nalishda shakllantirish maqsadida barcha mumkin bo’lgan vositalar bilan ta’sir ko’rsatish;

korxonada marketing tadqiqotlari natijasida yuzaga kelgan texnik va xo’jalik muammolarini, birinchi navbatda mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish va

²³КарповаС.В. Международный маркетинг. Учеб.пособие для вузов, 2-е изд. – М.: Экзамен, 2008 – 39с.)

takomillashtirishga oid muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni rivojlantirish va rag'batlantirish;

tovarni yakuniy iste'molchini qondiradigan darajada kerakli joyga kerakli miqdorda kerakli vaqtda etkazib berishni ta'minlash;

ilmiy loyihalar, ishlab chiqarish, sotish, xizmat ko'rsatish – barcha jarayonlarni maqsadli boshqarishni ta'minlash;

yangi, ayniqsa, o'z sohasida ilk bor ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan bozorga chiqishda kechikmaslik;

xalqaro bozorni iste'molchilarning nisbatan bir xil guruhlariga taqsimlash (bozorni segmentlash) hamda asosiy e'tiborni korxonaning potensial imkoniyatlari yuqori bo'lgan va bozor segmentining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan segmentlarga qaratish;

bozorni eng yuqori sifatli va ishonchli tovarlar bilan egallab olish;

- raqobatchilik ko'rashida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va texnik darajasini oshirish, xaridorga mahsulotga qo'shimcha ko'rsatiluvchi sifatli va katta hajmdagi xizmat turlarini taklif qilish hisobiga ustunlikka ega bo'lish;

- savdo vositachilariga texnik muammolarni hal qilish va ularning xodimlarini o'qitish yo'li bilan yordam ko'rsatish;

- marketing strategiyasini istiqbolga yo'naltirish, xalqaro bozorni egallab olish, savdo hajmini, ayniqsa, istiqbolli bozor sektorlarida kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar qo'yish;

- boshqaruvni iloji boricha tovar tamoyillari asosida tashkil etish imkoniyatlarida foydalanish, bu xodimlarning ishlab chiqarishni boshqarish va

muayyan mahsulot turlarini sotish bo'yicha yuqori malaka va tajribaga ega bo'lishariga xizmat qiladi hamda rahbariyatning alohida tovar bozorlarida javobgarligini oshiradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotda haqini 100% oldindan to'lash, yoki hisob-kitobning akkreditiv shaklidan foydalanish, yoki xaridorning banki kafolatlari yoki eksport kontraktlarining siyosiy va tijorat tavakkalchiliklardan sug'urta polisi mavjud bo'lishi shratlarida eksportni amalga oshirishlari mumkin.

Eksport operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarning bunday cheklanishini davlat tomonidan sarmoyaning mamlakatdan chiqib ketishining oldini olishga harakat qilinishi bilan izohlash mumkin. Biroq, foydalaniladigan hisob-kitob shaklini tadbirkorlarga bunday majbur qilish hozirgi vaqtda eksportni kengaytirishda jiddiy to'siqqa aylanadi. Akkreditivlardan foydalanish hamda bank kafolatlari va sug'urta polisini olish ancha sarf-xarajatli va ularni rasmiylashtirish tadbirkorlardan ancha bilim va tajribani talab qiladi. Oldindan haqini to'lash esa import qiluvchi uchun muayyan tavakkalchilikni keltirib chiqaradi va uni o'z pul mablag'larini ancha vaqt muomiladan chiqarib qo'yishga majbur qiladi hamda u shu tarzda sotuvchiga o'ziga xos foizsiz kredit bergan bo'lib chiqadi. Bularning barchasi mahalliy korxonalar – imkoniyatiga ega bo'lgan import qiluvchilar uchun xorijiy sheriklarni izlashni ancha qiyinlashtiradi va ularni mahsulotlarni norasmiy yetkazib berishga majbur qiladi, bu ham o'z navbatida, investisiyaning mamlakat tashqarisiga chiqib ketishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek valyuta operatsiyalarida konvertatsiyalarni o'tkazish kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining masalasini xanuzgacha to'liq echimini topmaganligi kichik biznes sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

3.Eksport qilishda ma'muriy tartib-qoidalar bilan bog'liq muammolarning yuqoriligi. Hozirgi kunda eksport qilish tartib-qoidalarini bajarish bilan bog'liq muammolar ko'pligicha saqlanib qolmoqda. Tahlillarga ko'ra, har bir ikkinchi eksport qiluvchi mavjud eksport va bojxona tartib-qoidalari mamlakat eksport salohiyati rivojlanishini to'xtatib turibdi deb hisoblaydi.

2009-yilda Jahon banki "Doing Business 2010: How to reform" ("Бизнес в 2010 году. Как проводить реформы") yillik hisobotini e'lon qildi.Ushbu tadqiqotda jahonning 175 mamlakatida biznes yuritilishi shart-sharoitlari tavsiflaydigan qiyosiy ko'rsatkichlar keltiriladi.Mualliflar "Tashqi savdo" bo'limida maxsus ishlab chiqilgan metodologiyadan foydalanib bitta eksport operatsiyasini amalga oshirish uchun har bir mamlakatning tadbirkorlarga har xil tartib-qoidalarni bajarish uchun qancha vaqt zarur bo'lishini hamda buning uchun zarur bo'lgan hujjatlar sonini baholaydilar.

Jumladan, Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra bitta eksport operatsiyasini operatsiyasini amalga oshirish uchun quyidagilar zarur (quyida Osiyoning ayrim mamlakatlari bo'yicha o'rtacha ma'lumotlar keltirilgan): Sigapurda – 6 kun sarflanadi va 5 ta turli hujjat taqdim etiladi; J.Koreyada – 12 kun sarflanadi va 5 taturli hujjat taqdim etiladi; Malayziyada – 20 kun sarflanadi va 6 ta turli hujjat taqdim etiladi; Rossiyada – 39 kun sarflanadi va 8 ta turli hujjat taqdim etiladi; O'zbekistonda – 44 kun sarflanadi va 10 ta turli hujjat taqdim etiladi; Mo'g'ulistonda – 66 kun sarflanadi va 11 turli hujjat taqdim etiladi.

5.Tadbirkorlar huquqiy savodxonligi darajasining pastligi va tashqi savdo sohasida zarur axborotning yetishmasligi. Tadbirkorlarning o'zining huquqiy savodxonligi darajasi yuqori emasligi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari orasida kichik biznes sub'ektlari ulushi pastligining sabablaridan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlar tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog'ida ko'pincha o'z huquq va majburiyatlarini bilmaydilar. Tashqi savdo tartib-qoidalarini tartibga soladigan normative hujjatlarning oddiy talablarini bilmaslik tufayli tadbirkorlar zarur hujjatlar turkumini sifatli tayyorlay olmaydilar yoki davlat organlarining qonunga xilof xatti-harakatlariga qarshi dalillar bilan e'tiroz bildirsa olmaydilar. Bu tartib qoidalarini rasmiylashtirish muddatlari ancha cho'zilib ketishiga va tadbirkorlarning xarajatlari ko'payib ketishiga olib keladi. Eksport-import masalalarini tadqiq qilishga narx konyunkturasi, bozorlar, import qiluvchi mamlakatlarning bojxona qonunchiligi hamda ushbu mamlakatlarda qabul qilingan standartlar va boshqa talablar to'g'risida yetarlicha axborotning mavjud emasligi muammosi mavjud.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni*) (dehqon va fermer xujaliklarisiz) (birlilik)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar ulushi, foizda		Faoliyatini tugatganlar	
	1.01.2013y.	1.01.2014y.	1.01.2013y.	1.01.2014y.	1.01.2013y.	1.01.2014y.	1.01.2013y.	1.01.2014y.
Jami	20529	20430	16686	16087	81,3	78,7	1728	1832
Shundan: Qarshi shahar	4334	3991	3836	3275	88,5	82,1	649	640
tumanlar:								
G'uzor	1245	1254	1025	831	82,3	66,3	98	89
Dehqonobod	872	953	801	887	91,9	93,1	23	27
Qamashi	1460	1498	1278	1270	87,5	84,8	60	50
Qarshi	1235	1331	1063	1118	86,1	84,0	52	61
Koson	1578	1674	1247	1409	79,0	84,2	64	87
Kitob	1523	1518	1148	1209	75,4	79,6	87	101
Mirishkor	613	636	560	593	91,4	93,2	30	16
Muborak	942	986	600	667	63,7	67,6	45	31
Nishon	690	563	368	397	53,3	70,5	58	177
Kasbi	721	743	584	648	81,0	87,2	35	47
Chiroqchi	1702	1644	1365	1226	80,2	74,6	138	247
Shahrisabz	2071	2038	1569	1637	75,8	80,3	234	197
Yakkabog'	1543	1601	1242	920	80,5	57,5	155	62

*) Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 11-oktabrdagi 439-sonli qaroriga asosan

III- Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirishda tadbirkorlik faoliyatini kreditlashni takomillashtirish yo'llari.

Prezidentimiz Islom Karimov shunday takidlab o'tgan edilar "...20 yil avval O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli yo'q edi, bugun esa mavjud barcha xo'jalik sub'ektlarining 90 foizdan ortig'ini kichik biznes korxonalari tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 54 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 22 foizi va qishloq xo'jalik mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda".²⁴

Shunisi muhimki, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlari jahon bozorida neft va gaz harxi oshib borayotgan bir sharoitda qator mamlakatlarda kuzatilayotgan holatdan tubdan farq qiladi, y'ani, bizning iqtisodiy rivojlanishimiz ekstensiv o'sish va faqat uglevodorod xomashyosini zo'r berib to'xtovsiz qazib olish evaziga bo'layotgani yo'q. Aksincha, biz aniq maqsadga qaratilgan bozor islohotlarini, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tarmoq va korxonlarni yangilash, texnik qayta jihozlash, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan iqtisodiy taraqqiyotga erishmoqdamiz.²⁵

Biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz

²⁴www.press-service.uz. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati) 2013-yil.

²⁵Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг Олий Мажлис, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисида сўзлаган маърузасидан. "Фидокор" газетаси, 2007 йил 6 сентябр.

taqozo etiladi. Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimiz I.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarida keng va batafsil bayon qilib berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishi xo'jaliklardan ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatlarida xaqiqiy mustaqil bo'lishlarini talab etadi. Aynan shu paytda xo'jalik faoliyatining unumdorligini oshirish maqsadida marketingdan foydalanish nafaqat maqsadga muvofiq, balki ob'ektiv jixatdan zarurdir. Shu munosabat bilan tashqi iqtisodiy faoliyat marketingni tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassisilarni tayyorlash zarurati yuzaga keladi.

Xozirgi zamon bozorida muvaffakiyatga erishish ilmiy texnika natijasida firmaning ishlab chiqarish, moliyaviy va texnologik saloxiyati bilan emas, balki marketing faoliyatini samarali tashkil etish bilan aniklanadi, - degan fikr-muloxazalar xukm surmokda. Buni tasdiklovchi xakikat shuki, keyingi 10-15 yilda marketing zamonaviy biznesning katta mustakil soxasiga aylanib ketdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 50 foizdan ko'p amerikalik, 86 foiz yevropalik va 60 foiz yapon biznesmenlari, firma va kompaniyalari marketing bo'limi bilan birgalikda o'z faoliyatlarini olib boradilar.

Marketingni iqtisodiyotimizga kirib kelishi, ko'proq chet el tajribalaridan foydalangan holda uni yanada takomillashtirish va mukammlashtirish, bizni marketologlarimiz oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalaridan bo'lib holmoqda. Xususan, marketingni Amerikadan boshlanishi, rivojlanishi va takomillashishi konsepsiyalarini paydo bo'lishini ko'plab iqtisodchilar, shu jumladan F.Kotler tomonidan ham e'tirof qilingan edi. Albatta bunda har bir mamlakatning sotsial tuzimi, iqtisodiy quvvati, mehnat va tabiiy resurslarini hisobga olgan holda baholanadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlarning rivojlanishi va u bilan bog'liq bo'lgan ko'plab korxonalar iqtisodiy faoliyatidagi o'zgarishlar tobora o'z mahsulotlarini eksport qilishga yo'naltiradi, shuningdek, boshqa mamlakatlardan tovarlarni import qilishga ixtisoslashgan savdo tashkilotlarining paydo bo'lishi, mamlakatimizdagi xo'jalik strukturalarining xalqaro mehnat taqsimotiga jalb etilishi – bularning barchasi, ayniqsa, korxona, tashkilot, bank va sug'o'rta kompaniyalarining ishlab chiqarish, sotuv va boshqaruv faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida tahqi iqtisodiy faoliyat marketing funksiyalari va usullarini yaxshi bilishni talab qiladi.

Lekin hozirda yurtimizda berilgan keng imkoniyatlar qaramasdan kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar mavjud:

1. Bozor infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ma'lumki, sof bozor munosabatlari bozor sub'ektlarining erkin va keng qamrovli munosabatlariga tayanadi. Bunday munosabatlar esa, eng avvalo, bozor qonunlarining haqiqiy qaror topganligiga va amal qilishiga asoslanadi.

2. Bozor qonunlaridan biri bo'lgan raqobatning hayotda sezilmasligi. Bozor infratuzilmasining to'liq va keng shakllanmaganligi oqibatida raqobatning so'nib qolishi va oxir-oqibatda monopoliyaning keng ildiz otishiga sabab bo'lmoqda. Amalda monopoliyaga qarshi qonun qabul qilingan bo'lsada, uning hayotdagi ijrosi samarasizligicha qolmoqda. Bu esa, ayrim monopol korxona va kompaniyalarning tobora rivojlanishiga va ko'pgina boshqa kichik korxonalarning iqtisodiy ahvoli yanada nochorlashib borishiga, buning oqibatida, ularning ko'pchiligi faoliyatining to'xtab qolishi sabab bo'lmoqda yoki butunlay tugatilishiga olib kelmoqda.

3. Korxonalarda texnika va uskunalarning eskirganligi. To'la eskirgan va ishga butunlay yaroqsiz uskunalar bilan ishlash, moddiy xarajatlarning ustunligi, tannarxga kiritiluvchi turli soliq, majburiy to'lov va ajratmalarning ko'pligi va soliq yukining og'irligi oqibatida tadbirkor ixtiyorida sof foydaning juda kam qolishi yoki faoliyatini zarar bilan yakunlashiga olib kelmoqda. Bu esa ularning noqonuniy, yashirin daromad topishga intilishlarini kuchaytirmoqda. Bu yagona soliq to'lovining joriy etilishi natijasida yuqoridagi muammolar ancha kamaydi. Ammo, hozirgi kunda bu muammolar to'liq bartaraf qilinganicha yo'q.

4. Sug'urta tizimining aynika viloyatlarla rivojlanmaganligi. Viloyatda sug'urta tashkilotlarining iqtisodiyot tarmoqlarini o'zaro bo'lishib olganligi kuzatiladi. «Madad» sug'urta agentligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini, «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi qishloq xo'jaligi korxonalarini, «Kafolat» sug'urta tashkiloti majburiy sug'urtalanuvchi mulklarni, ayrimlari eksport - import mahsulotlarini va hokazolarni sug'urtalash holati mavjud. Bu esa viloyatda sug'urta tashkilotlari o'rtasida raqobatning yo'qligi, o'z navbatida, sug'urta munosabatlarining yomon tashkil etilganligi va sug'urta xizmati sifatining pastligini ko'rsatadi. Bu esa sug'urta tashkilotlarining tadbirkorlar, korxonalar oldidagi moliyaviy dastak vazifasidan uzoqlashib ketishiga, oxir-oqibat korxonalar moliyaviy ta'minotining yomonlashuviga olib kelmoqda. Zero, bu bozor infratuzilmasining bir turdagi sub'ektlari yaxshi faoliyat yuritmayotganlikligidan dalolat beradi.

5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga konsalting hamda auditorlik xizmatlari ko'rsatilish darajasining o'ta pastligi. Ular o'rtasida raqobatning yo'qligi, shuningdek ular sonining juda kamligi.

6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga mahalliy hokimliklarning har xil tadbirlar uchun homiylik yordam ko'rsatishini talab qilishlari mavjudligi.

7. Kichik biznes korxonalarining tashqi bozorga chiqishida bir qancha muammolar mavjud. Xususan, eksport shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va bojxona organlarida hisobga olish jarayonlarining murakkabligidir. Shuningdek, kichik biznes sub'ektlariga ishlab chiqarishni rejalashtirish hamda tovarlar vaxizmatlarni chet elga sotishda yordam ko'rsatish borasida samarali tizim ishlab chiqilmagan.

8. Kichik biznes korxonalari asbob-uskunalar, transport va boshqa ishlab chiqarish vositalarini sotib olishlarida bir qancha muammolarga duch kelmokda. Chunki bu ularning «cho'ntagi» ga to'g'ri kelmaydi.

3.2. Kreditlashda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari.

Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan faol chora-tadbirlar tufayli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ish olib borayotgan makroiqtisodiy hamda amaliy muhit hozirgi kunda ancha yaxshilandi. Buni mamlakatimiz tadbirkorlari ham, xorijiy ekspertlar ham e'tirof etishayapti.²⁶

Hozirgi kunda respublikamizda mikromilyalashtirish tizmini rivojlantirish tizmini rivojlantirishda kichik biznes sub'ektlarining kreditga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“Mikrokreditbank” ochiq aksiyadorlik tijorat banki ayni shu sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda bu borada zamonaviy va keng ko'lamli bank xizmatlari ko'rsatish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan universal tijorat banki hisoblanadi.

“Mikrokreditbank” ochiq aksiyadorlik-tijorat bankining tashkiliy asosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil maydagi “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankini tashkil etish to'g'risida”gi PF-3750-sonli Farmoni bo'lib hisoblanadi.²⁷

Bank kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi keng

²⁶www.bank.uz.

²⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankini tashkil etish to'g'risida”gi PF-3750-sonli Farmoni.2006-yil 5-may.

tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.²⁸

Bankning jamiyat ravnaqiga qo'shgan hissasini yuqori baholagan Respublika Prezidenti 2008-yil 10-noyabrdagi "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan qo'shimcha sarmoya ajratib uning nizom jamg'armasini 150 mlrd.so'mga yetkazdi.

"Mikrokreditbank" aksiyadorlarining 2009 yil 19 martdagi umumiy yig'ilishi qaroriga asosan ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Bank mijoz manfaatini ko'zlagan holda o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilab olgan:

- maqsadli, imtiyozli, jumladan boshlang'ich kapitalni shakllantirishga mikrokreditlar ajratish orqali Respublikaning barcha hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga o'z faoliyatini kengaytirish hamda xomashyo va materiallarni qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida sotishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

- tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan raqobatbardosh mahsulotlar reklamalari va ko'rgazma yarmarkalarini tashkil etish orqali ularni tashqi iqtisodiy faoliyatda va ichki bozorlarda mustahkam o'rin olishlariga moliyaviy yordam ko'rsatish.

²⁸"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tizimida tashkil etilgan mini-banklar uchun qo'llaniladigan xujjatlar to'plami.2008-yil.

Tadbirkorlik sub'ektlariga mikrolizing xizmatlari ko'rsatish xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznesni va kasanachilikni rivojlantirish yo'li bilan yangi ish o'rinlari yaratish, aholi keng qatlamlarining, shu jumladan qishloq joylarda, moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Mikrolizing bo'yicha xizmatlar kichik biznes sub'ektlariga eng kam oylik ish haqining 2000 barobarigacha miqdorda, 3 yilgacha bo'lgan muddtga, yillik maksimal 5 foiz stavka miqdorida ko'ratiladi.

Boshlang'inch (start) sarmoyani shakllantirish uchun mikrokredit yiliga 3 foiz stavka bo'yicha 18 oy muddatgacha;


eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun;

eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda mikrofirmalar va dehqon xo'jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan);

eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha miqdorda fermer xo'jaliklari uchun beriladi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga mikrokredit boshlang'inch (start) sarmoyasini shakllantirish uchun ular kredit olish uchun davlat ro'yhatidan o'tkazilgan kunfan boshlab 6 oy mobaynida nuyurtma taqdim etilganda beriladi.

Bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklariga jalb qilishni rag'batlantirish yo'llari



3.2.1-rasm. Bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklariga jalb qilishni rag'batlantirish yo'llari

Mikrokreditlar biznesni rivojlantirish (kengaytirish) va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlariga (mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklariga) O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdoridan yuqori bo'magan fozi stavkasi bo'yicha, 24 oy muddatgacha, eng kam oylik ish haqining 500 barobarigacha niqdorda beriladi.

Mikrokreditlar va mikrolizinglar quyidagi yo'nalishlarga ajratilmaydi:

- ilgari olingan kreditlarni yoki boshqa xar qanday qarzlarni to'lashga;
- tamakichilikni va alkagolli ichimliklarni ishlab chiqarishni tashkil etishga;
- lotoreya, totalizator va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etishga;

Mikrokreditbank berish to'g'risidagi qaror kredit qo'mitasi tomonidan bankka zarur hujjatlar ilova qilingan holda kredit buyurtmanomasi tushgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida qabul qilinadi.

“Mikrokreditbank” OATB tizimida Xalqaro Taraqqiyot Uyushmasining “Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash. II-bosqich” kredit liniyasi hisobidan kredit (lizing) ajratish va monitoringini amalga oshirish tartibi;

“Qishloq xo'jalik korxonalarini qo'llab-quvvatlash.II-bosqich” loyihasi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Qishloq xo'jaligi korxonalarini tarkibiy qayta tuzish agentligi (keying matnlarda “Agentlik”, deb yuritiladi) va “Mikrokreditbank” OATB o'rtasida imzolangan Qayta kreditlash to'g'risidagi shartnomada belgilangan Andijon, Buxoro, Sirdaryo, Qashqadaryo, Samarqand va

Toshkent viloyatlarining (shaxar markzalaridan tashqari) tumanlarida amalga oshiriladi.

Ushbu loyiah doirasida loyiha viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi korxonalariga investitsion va aylanma kapitalni shakllantirish uchun qisqa va uzoq muddatli kreditlar beriladi.

Kredit liniyasi hisobidan qishloq xo'jaligi bilan bo'g'liq bo'lgan quyida keltirilgan faoliyat turlari moliyalashtiriladi:

- qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni (ishlab chiqarish quvvatlari) moliyalashtirish;

- iste'mol maxsulotlari ishlab chiqaruvchi, ularni qayta ishlovchi qishloq xo'jaligi texnika va uskunalarga investitsiya qilish;

- saqlash;

- qadoqlash;

- qishloq xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish;

- chorvachilik;

- asalarichilik;

- baliqchilik xo'jaliklariga (baliq yetishtirish);

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va tovarlarini sotuvchi do'konlarga investitsiya qilish;

- boshqa uzoq muddatli investitsiyalar.

Har bir mijozga (qarzdorga) ajratiladigan kreditning umumiy miqdori 300.000 AQSH dollari ekvivalentidan qaytarish bo'yicha imtiyozli muddat 3 yildan oshmasligi kerak.

Har bir mijozga (qarzdorga) aylanma capital uchun ajratiladigan kreditning umumiy miqdori 50.000 AQSH dollari ekvivalentidan oshmasligi va maksimal muddati 18 oygacha bo'lishi kerak.

Loyihani amalga oshirish bilan bo'g'liq bo'lgan xarakatlarni qoplash maqsadida kredit oluvchi mijoz o'z mablag'lari hisobidan unga ajratiladigan kredit summasining 10 (o'n) foizidan kam bo'lmagan miqdorda badal to'lashi lozim.

HULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishi doirasida kichik biznes sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat marketing strategiyasining xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosa va takliflar ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash natijasida ularning eksportbop, raqobatlasha oladigan sifatli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishini ta'minlaydigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlashga harakat qilinmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda yanada rivojlanishini ta'minlash borasida takliflar quyidagilardan iboratdir:

1.Joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda halal berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki qilishi mumkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

2.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyat faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish borasida har bir hududdagi o'ziga xos xususiyatarini aniqlash va ulradan kelib chiqqan holda mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar etish;

3.Hududlardagi eksportga mahsulot chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga aniq va ta'sirchan yordam ko'rsatish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish;

4.Hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ichki va tashqi bozorda raqobotlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan marketing strategiyalarini takomillashtirish lozim;

5.Kichik biznes eksport imkoniyatini kengaytirishda, jahon bozoriga kirishda ushbu subyektlar uchun alohida mos keladigantashqi iqtisodiy marketingstrategiyasini ishlab chiqish va bozorda mustahkam o'rin egallashini ta'minlashdan iborat.;

6.“Mikrokreditbank” OATB tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lamiga qaramasdan, hozirgi kunda sohaning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan konvertatsiya masalasida ushbu bankda yetarlicha, ana shu muoammolarni bartaraf etishi va yangi xizmat turlarini joriy qilgan xolda kichik biznes sub'ektlarini qo'llab quvatlashda davom etishi lozim;

7.Kelgusida kichik biznes sub'ektlarini eksport salohiyatini oshirish yuzasidan “Mikrokreditbank” OATB tomonidan yangi kredit linyalarini amalga oshirish kerak;

8.Kreditlar olish imkoniyatlarini kengaytirish;

9.Chuqur qayta ishlangan mahsulot eksporti bilan shug'ullanadigan tadbirkorlar uchun valyuta tushumini sotishning majburiy normalarini yaxshilash, banklararo hisoblash tizimini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent.O'zbekiston, 2003.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 290-sonli qarori.-T.: 31.12.2008-y.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" qonunchilik palatasi tomonidan 2012-yil 16-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2012-yil 23-martda ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 19-martdagi 79-sonli "Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishni rag'batlantirishga doir chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun yangi tahriri. 2012-yil 2-may.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24 avgustdagi "Kichik biznes va xusuiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 4354-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. 2005-yil 21-iyul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-apreldagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-yanvarda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to'g'risida"gi PQ-1464-sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011-2015-yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rastkichlariga erishishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011-yil 11-mart, PQ-1501-sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3750-sonli Farmoni. 2006-yil 5-may.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4051 sonli Farmoni. 2008-yil 10-noyabr.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2012-yil 6-dekabr.

“Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2013-yil 18-yanvar.

“2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ladi”. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 201- yilda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012-yil 20-yanvar, № 14 (5414).

Karimov I.A.«Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2012-yil 18-fevral.

Karimov I.A. Demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: O'zbekiston, 2011.

Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - Prezident Islom Karimovning 2010 yilda

mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi", 2011 yil 22-yanvar.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.

Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010-yil 28-yanvar.

Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida"-T: "O'zbekiston" 2011-yil.

Karimov I.A. "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 2012-yil 17-sentyabr.

Karimov I.A. "Erishilgan yutuqlarni mustaxkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. -T.: "Xalq so'zi" gazetasi.(3828)-son. –T.: 2006-yil.

III. Asosiy adabiyotlar

ABoltabayev.M, Qosimova.M, Ergashxodjayeva.Sh, G'oyibnazarov.B, Samadov.A, Otajonov.Sh. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” (Darslik)-T. TDIU, 2011-yil.Bekmurodov A. Sh., Sattorov S., To'rayev J., Soliyev K., Ro'ziyev S.Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. -T.: TDIU, 2005. - 67 b.

G'oyibnazarov B.K., Rahmonov X.O., Otajonov Sh.I., Almatova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili. –T.: Fan, 2011. -184 b.

Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. -267 b.

Jalolov J., Fattaxov A., Axmedov I., Xotamov I., Shadmankulov A., Jalolova D., Qosimov D., Azlarova A., Abdilakimov G. “Biznes marketing” (Darslik).-Toshkent. 2009.

Samadov A.N. “Kichik biznesni boshqarish” fanidan ma'ruzalar matni.- T.:TDIU; 2011.

I.S.Xotamov, B.Sh.Hamroeva. “Marketing”. (O'quv qo'llanma). 2012.

Nazarova F.M., Karimova R.N. “Xalqaro marketing”. (O'quv qo'llanma). - Toshkent, 2010 y.

Yusupov M.F., Ergashxo'jaeva SH.J. “Tadbirkorlik asoslari” fanidan ma'ruzalar matni.-T.:TDIU, 2011.

G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.:1998. -232 b.

Jalolov J.J., Ahmedov I.A. Tashqi iqtisodiy faoliyat. O'qiv qo'llanma.-T.: TDIU, 2005. -148 b.

Багиев Г.Л. Международный маркетинг – СПб.: Питер, 2007.

Карпова С.В. Международный маркетинг. Учеб.пособие для вузов, 2-е изд. – М.: Экзамен, 2008 – 36с.).

Синяева И.М. Маркетинг в предпринимательской деятельности. – М: Дашков и Ко, 2008.

В.Я.ГорфинкеляМалый бизнес. Организация, экономика, управление: Учеб. пособие для вузов/ – 2-е изд., пререб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003.

Девид Кемпбел и др. Стратегический менежмент. ООО «Издательство Проспект», 2003.

Сирополис Н. Управлени малым бизнесом. М.: Дело, 1997.

А.И.Муравьев, А.М.Игнатьев, А.Б.Крутик Малый бизнес: экономика, организация, финансы. Изд.дом. Бизнес-пресса. СПб., 1999.

Е.П.Голубков Основы маркетинга. Дарслик. М.: Финпресс, 1999.

Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. М.: Мысль, 2000.

Филип Котлер. Основы маркетинга. Перевод с английского В. Б. Боброва. Общая редакция и вступительная статья Е. М. Пеньковой. Москва. Издательство «Прогресс». 1991.

Майкл Портер. “Конкурентная стратегия”. Методика анализа отраслей конкурентов. 2011.

Черныш Е.Н. и др. Прогнозирование и планирование в условиях рынка. -М.: 2004.

Лукина А.В. Маркетинг: Учебное пособие. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 224с. 2 экз.

Герасимов Б.И., Мозгов Н.Н. Маркетинговые исследования рынка: учебное пособие / Б.И. Герасимов, Н.Н. Мозгов. – М.: ФОРУМ, 2009. – 336 с.: ил.

Данько Т.П. Управление маркетингом: Учебник. 3-е изд., перераб. И доп. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 363 с.

Михалева Е.П. Маркетинг: Конспект лекций. – М.: Издательство ЮРАЙТ; Высшее образование, 2010. – 222 с.

VI. Qo'shimcha adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma.- Toshkent: Iqtisodiyot.-2012.-282 bet

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 375 bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 331 bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmuradov, U.V.Fofurov, B.K.Tuxliyev. –T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

Bekmuradov A. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 5-qism. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari – T.: TDIU, 2005.

V. Davriy nashr, statistik to'plamlar va hisobotlar

Quvondiqov Sh.O. Xizmat sohalarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2007. – № 7. – B. 61.

Xalq so'zi. Gazeta. 2009-2013-yy. Sonlari.

Toshmatov X. Va boshqalar. Marketing xizmati. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi.T-2006.-№ 1. -23b.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: “O'zbekiston”, 2011.

Ekonomicheskoye obozreniye. Jurnal. 2007-2012 yy. Sonlari

Uzbekistan v sifrax 2012. Statisticheskiy sbornik. – T.: Statistika, 2012.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika ma'lumotlari. 2009-2012 yy.

Mikrokreditbank" ochiq aksiyadorlik-tijorat bankining 2012-yilga mo'ljallangan kredit siyosati.

VI. Internet saytlari

www.press-service.uz

www.stat.uz

www.gov.uz

www.soliq.uz

www.mikrokreditbank.uz

www.bank.uz

www.mfer.uz

www.UzA.Uz

www.review.uz

www.lex.uz

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2013 yilda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari dinamikasi tahlili

(barcha toifadagi xo'jaliklarda; tonna)

Ko'rsatkichlar	2013 yilda Go'sht, tonna (tirik vaznda)	2013 yilda 2012 yilga nisbatan foizda	2013 yilda Sut, tonna	2013 yilda 2012 yilga nisbatan foizda	2013 yilda Tuxum, ming dona	2013 yilda 2012 yilga nisbatan foizda
Viloyat bo'yicha jami	218989	106,4	829408	107,4	279651	112,7
shundan:						
Koson tumani bo'yicha	19511	103,7	74876	105,2	34899	109,3
Tuman ko'rsatkichlarining viloyat ko'rsatkichlardagi salmog'i, %	8,9	x	9,03	x	12,5	x

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni*) (dehqon va fermer xujaliklarisiz) (birlik)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar ulushi, foizda		Faoliyatini tugatganlar	
	1.01.2013y.	1.01.2014y.	1.01.2013y.	1.01.2014y.	1.01.2013y.	1.01.2014y.	1.01.2013y.	1.01.2014y.
Jami	20529	20430	16686	16087	81,3	78,7	1728	1832
Shundan: Qarshi shahar tumanlar:	4334	3991	3836	3275	88,5	82,1	649	640
G'uzor	1245	1254	1025	831	82,3	66,3	98	89
Dehqonobod	872	953	801	887	91,9	93,1	23	27
Qamashi	1460	1498	1278	1270	87,5	84,8	60	50
Qarshi	1235	1331	1063	1118	86,1	84,0	52	61
Koson	1578	1674	1247	1409	79,0	84,2	64	87
Kitob	1523	1518	1148	1209	75,4	79,6	87	101
Mirishkor	613	636	560	593	91,4	93,2	30	16
Muborak	942	986	600	667	63,7	67,6	45	31
Nishon	690	563	368	397	53,3	70,5	58	177
Kasbi	721	743	584	648	81,0	87,2	35	47
Chiroqchi	1702	1644	1365	1226	80,2	74,6	138	247
Shahrisabz	2071	2038	1569	1637	75,8	80,3	234	197
Yakkabog'	1543	1601	1242	920	80,5	57,5	155	62

*) Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 11-oktabrdagi 439-sonli qaroriga asosan

2013 yil yanvar-dekabr holatiga kichik tadbirkorlik (biznes)subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari (foizda)

	Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi								Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi							
	YAHM		Mehnatda band aholining umumiy sonidan		Eksportda		Importda		YAHM		Mehnatda band aholining umumiy sonidan		Eksportda		Importda	
	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.*)	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.
	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.*)	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.	2012y.	2013y.
Jami	51,4	51,4	77,0	77,8	18,1	22,7	34,5	57,9	x	x	16,9	16,9	18,1	22,7	34,5	57,9
Qarshi shahar tumanlar:	x	x	64,0	64,8	85,6	87,3	93,1	89,7	x	x	11,3	11,3	85,6	87,3	93,1	89,7
Gʻuzor	x	x	67,6	69,1	-	-	0,7	1,1	x	x	15,5	15,5	-	-	0,7	1,1
Dehqonobod	x	x	80,8	81,8	0,1	1,6	2,1	1,6	x	x	11,3	11,4	0,1	1,6	2,1	1,6
Qamashi	x	x	84,9	85,6	14,1	8,9	100,0	100,0	x	x	16,2	16,2	14,1	8,9	100,0	100,0
Qarshi	x	x	77,9	78,5	0,1	0,8	94,5	100,0	x	x	14,5	14,5	0,1	0,8	94,5	100,0
Koson	x	x	81,7	82,5	3,6	4,7	55,8	90,9	x	x	21,8	21,7	3,6	4,7	55,8	90,9
Kitob	x	x	76,8	77,7	100,0	100,0	100,0	100,0	x	x	18,5	18,5	100,0	100,0	100,0	100,0
Mirishkor	x	x	88,1	88,6	-	-	11,5	100,0	x	x	27,7	27,5	-	-	11,5	100,0
Muborak	x	x	66,3	66,9	-	-	0,8	3,5	x	x	17,1	17,0	-	-	0,8	3,5
Nishon	x	x	83,1	83,7	-	0,3	4,2	0,5	x	x	21,2	21,2	-	0,3	4,2	0,5
Kasbi	x	x	75,9	76,3	-	-	4,4	100,0	x	x	27,1	27,1	-	-	4,4	100,0
Chiroqchi	x	x	79,1	80,4	1,3	-	100,0	100,0	x	x	15,2	15,1	1,3	-	100,0	100,0
Shahrisabz	x	x	80,0	80,4	1,2	2,9	73,5	79,1	x	x	12,5	12,5	1,2	2,9	73,5	79,1
Yakkabogʻ	x	x	81,8	82,6	11,9	9,8	92,1	90,9	x	x	18,5	18,5	11,9	9,8	92,1	90,9
Jismoniy shaxslar	x	x			100,0	100,0	100,0	100,0	x	x			100,0	100,0	100,0	100,0